

MODDALAR VA ENERGIYA ALMASHINUVI



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS
TA‘LIM VAZIRLIGI
SAMARQAND VETERINARIYA MEDITSINASI INSTITUTI**

**D. ESHIMOV, Q.T. SOVETOV, F.X. INOYATOVA,
A.K. BAYKULOV, F.X. RAXMONOV**

MODDALAR VA ENERGIYA ALMASHINUVI

*Veterinariya meditsinasi va tibbiyot oliy o‘quv yurtlarining
talabalari uchun o‘quv qo‘llanma*

Toshkent – 2022

UO'K: 577.12(075)

KBK: 28.072ya73

M 67

M 67 Moddalar va energiya almashinuvi [Matn]: o'quv qo'llanma / D. Eshimov va boshqalar. — Toshkent: «O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati» nashriyoti, 2022. — 140 bet.

UO'K: 577.12(075)

KBK: 28.072ya73

O'quv qo'llanma Biokimyo fanining asosiy bo'limlaridan bo'lmish moddalar almashinuvi, assimilyatsiya, dissimilyatsiya, metabolizm, metabolitik yo'llar, anabolizm va katabolizm hamda bu jarayonlarning spetsifik va umumiy yo'llari, shuningdek energiya almashinuvi haqida nazariy bilimlarni qamrab olgan o'quv adabiyoti sifatida tayyorlangan. O'quv qo'llanma zamonaviy adabiyotlar materiallari bilan boyitilgan. So'nggi yillarda chop etilgan o'quv ilmiy adabiyotlarga tayangan holda moddalar va energiya almashinuvi to'g'risidagi ma'lumotlar batafsil yoritilgan. Veterinariya meditsinasi va tibbiyot oliy o'quv yurtlarining talabalari uchun mo'ljallangan.

Учебное пособие охватывает теоретические знания о обмене веществ, ассимиляции, диссимиляции, метаболизме, метаболических путях, анаболизме и катаболизме, а также специфических и общих путях этих процессов, а также об энергетическом обмене, которые являются основными разделами биохимии. Учебная пособия обогащен материалами из современной литературы. Информация о метаболизме веществ и энергии подробно раскрыта на основе научной литературы, опубликованной за последние годы.

The textbook covers theoretical knowledge of metabolism, assimilation, dissimilation, metabolic pathways, anabolism and catabolism, as well as specific and general ways of these processes, as well as energy metabolism, which are the main branches of biochemistry prepared as educational literature. The textbook is enriched with materials from modern literature. Information on the metabolism of substances and energy is covered in detail, based on the scientific literature published in recent years.

Taqrizchilar:

A.G. Karabayev — Tibbiyot fanlari nomzodi, dotsent

M.S. Kuziyev — Biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

O.O. Qo'ldoshev — Veterinariya fanlari nomzodi, assistent

ISBN 978-9943-8194-0-5

© «O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati» nashriyoti, 2022.

KIRISH

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Oily ta'lim muassasalari o'quv adabiyotlari bilan ta'minlash» to'g'risidagi qarori ijrosini amalga oshirish doirasida belgilangan – zarur o'quv adabiyotlarini belgilangan tartibda nashr qilish uchun tayyorlangan ushbu o'quv qo'llanma veterinariya va tibbiyot oily o'quv yurtlarida o'tiladigan fundamental fan – Biologik kimyoning amaldagi o'quv reja va namunaviy fan dasturiga mos ravishda tayyorlangan.

O'quv qo'llanma moddalar almashinuvi, metabolizm, katabolizmning umumiy yo'llari haqida eng yangi o'quv va ilmiy manbalardan foydalanilgan holda tayyorlangan.

O'quv qo'llanma o'qitishning yangi pedagogik texnologiyalari, interaktiv usullar asosida yozilganligi bilan o'qitishning yangi modul ta'lim tizimiga to'liq mos keladi.

O'quv qo'llanmada mavzuga mos nazariy qism, vaziyatli masalalar, testlar, amaliy ko'nikma savollari, talabalar bilimini mustahkamlash uchun topshiriqlar mavjud. O'quv qo'llanmani yozishda eng so'nggi o'quv va ilmiy manbalardan foydalanilgan.

Moddalar almashinuviga kirish

Sog'lom organizmda moddalar almashinuvini o'rganish, kasalliklarning sababini tushunish uchun zarur hisoblanadi. Ochlik, jismoniy zo'riqish, homiladorlik va laktatsiya davrlarida normal metabolitik jarayon — moslashish muhimdir. Ovqat mahsulotlarining organizmga yetarli miqdorda qabul qilinmasligi, fermentlar faolligi o'zgarishi, gormonlar disbalansida metabolizmning buzilishi kuzatiladi. Shuning uchun ko'rilayotgan mavzu tibbiyot amaliyotida turli kasalliklar patogenezi tushunishda katta ahamiyatga ega.

Tirik organizmning jonsiz tabiatdan asosiy farqi uning o'zini o'rab turgan tashqi muhit bilan modda va energiya almashinuvidir. Ovqatlanish va nafas olish organizmni tashqi muhit bilan bog'lovchi omil bo'libgina qolmay, balki modda va energiya almashinuvining asosiy bosqichlaridan hisoblanadi. Ovqatning asosiy komponentlari: oqsil, uglevod, lipidlar organizm uchun ham energetik manba, ham plastik material hisoblanadi. Organizmning kundalik energiyaga bo'lgan ehtiyojini 55 foizi uglevodlar hisobiga, 15 foizi oqsil va 30 foizi lipidlar parchalanishi (katabolizmi) hisobiga qoplanadi. Asosiy ozuqa moddalarning katabolizmini 3 bosqichga bo'lish mumkin.

1. Katabolizmning spetsifik yo'li:

a) ovqat hazm bo'lishi — ozuqa moddalarning oshqozon-ichak traktida so'rilishga tayyorlanishi, so'rilish — ingichka ichak shilliq pardasi orqali ozuqa moddalarning so'rilishi;

b) monomerlarning spetsifik parchalanishi.

2. Katabolizmning umumiy yo'llari:

a) pirouzum kislotalari (piruvat) ning oksidlanishli dekarboksillanishi;


b) uchkarbon kislotalar sikli:

3. Nafas olish zanjirida proton va elektronlar tashilishida energiya hosil bo'lishi (1-rasm).

Odam ovqatida ham organik, ham mineral kimyoviy birikmalar bo'ladi. Ovqat organik moddalarning juda katta qismini

asosiy oziq moddalari — uglevodlar, lipidlar, oqsillar tashkil qiladi, bular ovqatning major komponentlari deyiladi. Ovqatning minor komponentlari ham mavjud bo‘lib, ularga: vitaminlar, mineral moddalar kiradi.

Oziq moddalarining almashinadigan va almashtirib bo‘lmaydigan turlari bor. Almashinadigan moddalar organizmda boshqa moddalardan sintez bo‘lishi mumkin. Masalan, lipidlar uglevodlardan, uglevodlar aminokislotalardan hosil bo‘lishi mumkin. Almashinab bo‘lmaydigan oziq moddalari boshqa moddalardan sintez bo‘lmaydi va shu sababli ovqat tarkibida bo‘lishi kerak. Bular — aminokislotalar (valin, leysin, izoleysin, treonin, metionin, fenilalanin, triptofan, lizin); almashtirib bo‘lmaydigan yog‘ kislotalari (araxidonat, linolat, linolenat); vitaminlar; mineral moddalar.



I-rasm. Katabolitik yo‘llar

Organizmda moddalar avval bitta metabolitga aylanadi, keyin bundan ikkinchi va hokazo metabolitlar hosil bo‘lib boradi. Bu ketma-ket jarayonlarni metabolitik yo‘llar deb ataladi.

Metabolizm bu — barcha metabolitik yo‘llarning majmuasidir. Metabolizmda moddalar o‘zgarishining ikkita asosiy tomoni — katabolizm bilan anabolizm tafovut qilinadi. Katabolizm-da organik moddalar pirovard natijada karbonat anhidrid (CO_2) va suvga parchalanadi. Katabolizm ekzergonik (energiya ajraladigan) jarayondir. Anabolizm bu — oddiy moddalarning murakkab moddalarga aylanishidir. Anabolizm reaksiyalari endergonik (energiya sarflanadi) reaksiyalar jumlasiga kiradi; bular uchun katabolizm jarayonida hosil bo‘lgan ATF energiya manbayi bo‘lib xizmat qiladi.

Metabolik yo‘llar:

1. Markaziy metabolik yo‘llar bir — necha yuz gramm oqsillar, karbon suvlar, yog‘lar parchalanishi natijasida CO_2 , H_2O va energiya hosil bo‘ladi.

2. Ikkilamchi metabolik yo‘llar — bu spetsifik moddalarni hujayrada hosil bo‘lishi. Masalan, gormonlar, toksinlar, kofermentlar va boshqalar. Ularning miqdori mglarda o‘lchanadi.

3. Siklik metabolik yo‘llar. Ular mikroorganizmlarga xos bo‘lib, hujayra yonilg‘isi sifatida oksalat ishlatiladi.

Hozirgi vaqtda 2000 dan ortiq fermentlar hujayra metabolizmida ishtirok etishi aniqlangan. Ularning bir qismi asosiy, boshqalari ikkilamchi metabolik yo‘llarda ishtirok etadi. Ammo ularning barchasi bir-biri bilan uzviy bog‘liqdir. Ularning sxematik ko‘rinishi metabolik kartani tashkil qiladi.

Modda almashinuvini o‘rganish yo‘llari

Modda almashinuvini quyidagi yo‘llar bilan aniqlash mumkin:

1. Tirik organizmda.
2. To‘qima yoki a‘zolarida.
3. Hujayralarda.
4. Hujayra organellalarida.
5. Molekulalarda.

Oraliq metabolizmni o'rganish usullarini 3 guruhga bo'lish mumkin:

1. Tirik organizmda.
2. Analitik-dezintegrativ usul.
3. Sintetik usul.

Tirik organizmdagi usul izotoplar qo'llanilishiga asoslangandir. Bu usullar yordamida essensial ozuqa mahsulotlari to'g'risida muhim ma'lumotlar olingan.

Analitik-dezintegrativ usullar hujayra organoidlari yoki moddalarni ayratib olib, ularda kechadigan jarayonlarni o'rganishga qo'shilgan. Ammo bunda murakkab biologik bog'lanishlarni uzi-lichi kuzatiladi.

Sintez usullari ma'lum bir jarayonni sun'iy ravishda yaratishga asoslangan. Bunda maxsus modellardan foydalaniladi.


Savollar:

1. Metabolizm nima?
2. Metabolitik yo'llar nima?
3. Metabolitlarning sarflanish yo'llari qanday?
4. Anabolizm va katabolizm nima?
5. Assimilyatsiya va dissimilyatsiya nima?
6. Moddalar almashinuvi tushunchasining metabolizm tushunchasidan farqi?


Katabolizmning umumiy yo'llari

Pirouzum kislotasi(piruvat)ning oksidlanishli dekarboksillanishi

Piruvat glyukoza, aminokislotalar, glitserin va boshqa moddalar katabolizmidan hosil bo'lib, oksidlanishi mitoxondriya matritksida sodir bo'ladi. Sitoplazmadagi piruvat mitoxondriya matritksiga ichki membrana orqali maxsus tashuvchi oqsil – piruvatkarboksilaza yordamida H^+ bilan simport mexanizmi bo'yicha o'tadi (2-3-rasmlar).








2-rasm. Mitoxondriya tuzilishi




3-rasm. Piruvatning mitoxondriya membranasidan tashilishi

Piruvatning oksidlanishli dekarboksillanishini quyidagicha tasvirlanadi





Пируватнинг окsidlanishli dekarboksillanishi umumiy reaksiya:



Ushbu jarayon piruvatdehidrogenaza kompleksi (PDG) tarkibiga kiruvchi 3 ferment:

- 1) E_1 – Piruvatdehidrogenaza (Piruvatdekarboksilaza),
- 2) E_2 – Digidrolipoilatsetiltransferaza (Digidrolipoiltransferaza),

3) E_3 – Digidrolipoildehidrogenaza hamda 5 koferment:


- 1) Tiamin pirofosfat (TPF),
- 2) Lipoil kislota (LK),
- 3) Koenzim A (KoA),
- 4) Flavın adenin dinukleotid (FAD),
- 5) Nikotinamid adenin dinukleotid (NAD);

Ushu bilan birga tarkibida boshqaruvchi subbirliklar: protein-kinaza va fosfoproteinofosfatazalar kiradi (1-jadval).

Piruvatdegidrogenaza kompleksi tarkibi

Ferment		Monomerlar soni	Koferment	Vitamin
Piruvatdekarboksilaza (Piruvatdegidrogenaza)	E ₁	120 (30 ta tetramer)	TPP	B ₁
Digidrolipoilatsetil-transferaza	E ₂	180 (60 ta trimer)	LK, KoA	Lipoil kislota (LK), panto-ten kislota
Digidrolipoil-degidrogenaza	E ₃	12 (6 ta dimer)	FAD, NAD ⁺	B ₂ , PP


PDG kompleksi markazida digidrolipoilatsetiltransferaza yadro hosil qilib joylashgan. Unga piruvatdekarboksilaza va digidrolipoildegidrogenaza bogʻlangan holda joylashgan (4-rasm).



4-rasm. Piruvatdegidrogenaza kompleksi tarkibi PDG kompleksining boshqarilishi

PDG kompleksi fosforlanish va defosforlanish yoʻli bilan boshqariladi. PDG fosforlanganda ingibirlanadi, defosforlanganda esa faollashadi. ADF konsentratsiyasi oshganda PDG aktivlanadi, bu jarayon hujayrada Ca²⁺ oshganda kuchayadi. PDGning bunday aktivlanish mexanizmi mushak va yogʻ toʻqimalari uchun katta ahamiyatga ega. PDG reaksiyasi mahsulotlari atsetil-KoA va

NADH_2 PDG kinazani allosterik aktivatori. Aktivlangan kinaza PDGni fosforlab ingibirleydi. Shunday qilib, atsetil-KoA va NADH_2 ning ko'payishi piruvatdan atsetil-KoA ni hosil bo'lishini to'xtatadi. PDG kompleksi piruvat, Ca^{2+} , HSKoA, NAD^+ , ADP bilan allosterik faollashib, aksincha NADH_2 va ATF kinazani aktivlab, PDG kompleksini ingibirleydi, Ca^{2+} fosfatazani aktivlaydi. Bunday holat ochlikda jigar hujayralarida kuzatiladi: yog' to'qimasidan yog' kislotalar qonga o'tib, jigarda atsetil-KoA ga aylanadi, atsil-KoA ta'sirida PDG kompleksi ingibirlanishi kuchayadi va piruvat oksidlanmasdan glyukoza sintezi uchun sarflanadi (5-rasm).



5-rasm. PDG kompleksining boshqarilish mexanizmi

PDG kompleksi insulin gormoni bilan ham aktivlanadi. Insulin ta'sirida mitoxondriya matriksida Ca^{2+} oshadi. Miokard hujayralarida PDG kompleksi adrenalın gormoni bilan aktivlanadi. Biroq bu ta'sir siklik AMFga bog'liq emas. Arsenat hamda simob ionlari LKning $-\text{SH}$ guruhlari bilan komplekslar hosil qilib, PDGni ingibirleydi. Ovqat tarkibida tiamin yetishmasligida ham piruvat miqdori oshadi. Alkogolizm bilan kasallangan bemorlarda ovqatlanish me'yori buzilishi, tiamin yetishmasligiga sabab bo'ladi, ularga glyukoza yuborilganda piruvat va laktat to'planib, laktoatsidozga olib keladi va o'limga sabab bo'li-

shu mumkin. Bunday holat PDGning tugʻma yetishmovchiligida ham kuzatiladi.

Savollar:

1. Katabolizmning xos yoʻllariga qaysi jarayonlar kiradi?
2. Katabolizmning umumiy yoʻllariga qaysi jarayonlar kiradi?
3. PDG kompleksiga qaysi fermentlar kiradi?
4. PDG kompleksiga qaysi kofermentlar kiradi?
5. PDG kompleksi ishlashida qaysi vitaminlar ishtirok etadi?
6. PDG kompleksi qanday boshqariladi?
7. PDG kompleksi qayerda joylashgan?
8. Piruvatning oksidlanishli dekarboksidlanishida nechta ATF ajraladi?

Uchkarbon kislotalar sikli

Uchkarbon kislotalar sikli (sitrat sikli, limon kislota sikli, Krebs sikli) – katabolizmning soʻnggi bosqichi hisoblanadi. Bunda atsetil-KoA asetil qoldiqlari 2 molekula CO_2 ga oksidlanadi. Oksidlanish-qaytarilish reaksiyalarida ajraladigan vodorod atomlari NAD- va FAD-bogʻliq degidrogenazalar taʼsirida nafas olish zanjiriga oʻtkaziladi, natijada suv hosil boʻladi va ADF oksidlanishli-fosforlanishi kuzatiladi. Atsetil-KoA dagi uglerod atomlari orasidagi bogʻlar oksidlanishga turgʻundir. Organizmda atsetil qoldiqlarini oksidlanishi bir necha bosqichlarda kechadi. Uchkarbon kislotalar sikli yopiq metabolitik yoʻl boʻlib 8 ta alohida reaksiyalardan iborat. Oksaloatsetat bu reaksiyada boshlangʻich hamda oxirgi mahsuloti boʻlib hisoblanadi.




Gans Adolf Krebs

Uchkarbon kislotalar sikli uglevodlar, yogʻlar va aminokislotalar parchalanishidagi umumiy yoʻl hisoblanadi. Uglevodlar bilan yogʻlar bu siklga atsetil-KoA shaklida, aminokislotalar esa – α -ketoglutarat, suksinat va fumarat shaklida qoʻshiladi. Aktivlangan atsetatning koenzim A

shakli oksidlanishi Krebs siklida boradi. Bu sikl 1937-yilda Gans Adolf Krebs tomonidan taklif qilingan. G.Krebs (1904-yilda tugʻilgan) O. Varburgning shogirdi boʻlib u siydikchil hosil boʻlish nazariyasini va limon kislotasi siklini kashf qilganligi uchun 1954-yil fiziologiya va meditsina sohasida Nobel mukofotiga sazovor boʻldi.

Uchkarbon kislotalar sikli reaksiyalarining ketma-ketligi


1-REAKSIYA. Sitratni hosil boʻlishi. Sitrat hosil boʻlish reaksiyasida asetil-KoA metil guruhidagi uglerod atomi oksaloasetatning karbonil guruhi bilan bogʻlanadi; shu bilan bir vaqtda tioefin bogʻi parchalanadi va koenzim-A ajraladi ($\Delta G^0 -37,6$ kJ/mol). Hujayrada reaksiyaning muvozanati oʻng tomonga siljigan, chunki uning standart erkin energiyasi manfiy koʻrsatkichga ega. Bu reaksiyani mitoxondriyalarning matriksida joylashgan sitratsintetaza katalizlaydi:




ASETIL-KoA OKSALOATSETAT

SITRAT

2-REAKSIYA. Sitratni izositratga oʻtishi. Sitrat siklining ikkinchi reaksiyasi sitratni izositratga aylanishidir. Bu reaksiyani katalizlovchi ferment, hosil boʻluvchi oraliq mahsulot sis-akonitat kislotasi nomi bilan nomlangan (akonitatgidrotaza). Ammo bu modda erkin holda ajratib olinmagan, chunki reaksiya tugamaguncha fermentdan ajralmaydi. Ferment suvni sis-akonitatning qoʻsh bogʻiga birlashtirib izolimonsis-akonitat kislotasini hosil qiladi:




3-REAKSIYA. *Izositratni oksidlanishli dekarboksillanishi.* Bu reaksiyani izositratdehidrogenaza katalizlaydi. Izositratdehidrogenazaning 2-shakli mavjud: biri koferment sifatida NAD^+ tutadi, ikkinchisi — NAD^{F} . NAD -bog‘liq ferment mitoxondriyalarning matriksida joylashgan va Krebs siklida qatnashadi (NAD^{F} -bog‘liq ferment ham mitoxondriyalarda, ham sitozolda bor). Bu ferment ta‘sirida izositratdan α -ketoglutarat hosil bo‘ladi:




4-REAKSIYA. *α -ketoglutaratni oksidlanishli dekarboksillanishi.* Bu reaksiyada α -ketoglutarat oksidlanishli dekarboksillanib suksinil-KoA, CO_2 va $\text{NADH} + \text{H}^+$ hosil qiladi. Reaksiyani α -ketoglutaratdehidrogenaza kompleksi katalizlaydi. U tuzilishi va funksiyasi jihatidan piruvatdehidrogenaza kompleksiga o‘xshash. U ham

3 ferment: α -ketoglutaratdekarboksilaza, digidrolipoiltranssuksinilaza va digidrolipoildegidrogenaza, 5 kofermentlar: tiamindifosfat, koferment A, lipoat kislota, NAD^+ va FAD kiradi. PDG dan farqli o'laroq, α -ketoglutaratdegidrogenaza kompleksida murakkab boshqarilish mexanizmi (regulyator subbirliklar) yo'q. α -ketoglutaratni oksidlanishli dekarboksillanish reaksiya muvozanati suksinil-KoA hosil qilish tomonga siljigan va uni bir yo'nalishli deb hisoblash mumkin:



5-REAKSIYA. Suksinil-KoA suksinatga aylanishi. Suksinil-KoA – makroergik birikmadir. Uning tioefir bog'ini uzilishidan ajralgan erkin energiyasi – $\Delta G^0 -35,7 \text{ kJ/mol}$ tashkil etadi. Mitoxondriyalarda suksinil-KoAning tioefir bog'ini uzilishi guanozindifosfatni (GDF) guanozintrifosfatgacha (GTF) fosforlanishi bilan kechadi. Bu reaksiyani suksiniltiokinaza (suksinil-KoA-sintaza) fermenti katalizlaydi:




Reaksiyaning oraliq bosqichida fermentning faol markazidagi gistidin qoldiqlarini fosforlanishi kuzatiladi. So'ng fosfat kislota qoldig'i GDFga birikadi va GTF hosil qiladi. GTF oxirgi fosfat guruhi ADFga ko'chirilishi mumkin va natijada ATF hosil bo'ladi; bu qaytar reaksiyani **nukleoziddifosfatkinaza** katalizlaydi.




Suksinil-KoA yuqori energiyali fosfoangidrid bog‘i hisobiga fosforlanishni amalga oshirishi – substratli fosforlanishdir.


6-REAKSIYA. Suksinatni degidrogenlanishi. Suksinat suksinat-degidrogenaza (SDG) fermenti ta‘sirida fumaratga aylanadi. Bu ferment – flavoproteid, molekulasidagi FAD oqsil bilan kuchli kovalent bog‘langan. SDG ichki mitoxondrial membrananing ichki yuzasida joylashgan, 2 subbirlikdan iborat, bittasi koferment sifatida FAD tutadi. Ikkala subbirliklarda temir-oltingugurt markazlari bor; bittasida – Fe_2S_2 , ikkinchisida esa – Fe_4S_4 . Bu markazlardagi temir atomlarining valentligi o‘zgarib turadi va elektronlar tashilishida qatnashadi.



7-REAKSIYA. Fumaratdan malatni hosil bo‘lishi. Malat hosil bo‘lishini fumaratgidrataza (fumaraza) fermenti katalizlaydi. Fumaraza – oligomer oqsil, 4 bir xil polipeptid zanjirlardan iborat. U mitoxondriyaning matriksida joylashgan, stereospetsiflikka ega va faqat trans-fumaratni gidratatsiyasini katalizlaydi:



8-REAKSIYA. Malatni degidrogenlanishi. Sitrat siklining oxirgi reaksiyasida malat degidrogenlanib oksaloatsetatni hosil qiladi:




L-MALAT

OKSALOATSETAT

Reaksiyani mitoxondriyalarning matriksida joylashgan NAD ga bog'liq malatdegidrogenaza katalizlaydi. Reaksiyaning muvozanati chapga siljigan. Lekin, shunga qaramay, intakt hujayralarda reaksiya chapdan o'ngga kechadi, chunki hosil bo'lgan mahsulot — oksaloasetat sitratsintaza reaksiyasida jadal ishlatiladi. Sitozolda malatdegidrogenaza NADF ga bog'liq shakli mavjud, u sitrat siklida qatnashmaydi. Malatdegidrogenaza ikkala shakllari dimer oqsillardir. Ularning molekulyar og'irligi bir xil bo'lib, aminokislota tarkibi, elektroforetik xossasi va katalitik faolligi bilan bir-biridan farqlanadi.


Uchkarbon kislotalar siklining umumiy reaksiyasi:



Uchkarbon kislotalar siklining boshqarilishi

Uchkarbon kislotalar sikli quyidagi fermentlar aktivliklari bilan boshqariladi:

1. Sitratsintetaza. Bu ferment katalizlovchi reaksiya substrati — oksaloatsetat konsentratsiyasi oshganda tezlashadi. Reaksiya mahsuloti sitrat ta'sirida tormozlanadi. Shu bilan birgalikda ΔH , suksinil-KoA, atsil-KoA konsentratsiyalari oshganda reaksiya tezligi pasayadi.



6-rasm. Uchkarbon kislotalar siklining boshqarilish mexanizmi

2. Izositratdehidrogenaza oligomer ferment bo'lib 8 ta sub-birlikdan iborat. Izositratning 1-chi subbirlikga birikishi ferment konformatsiyasini kooperativ o'zgartirib, substrat birikish tezli-

gini oshiradi. Izositratdehidrogenaza ADF va Ca^{2+} , Mg^{2+} bilan allosterik aktivlanadi. NADH_2 konsentratsiyasining oshishi ferment aktivligini pasaytiradi.

3. α -ketoglutaratdehidrogenaza kompleksi asosiy boshqaruvchilari NADH_2 va suksinil-KoA bo'lib, bular ta'sirida reaksiya ingibirlanadi.

Shu bilan birga, ATF konsentratsiyasi oshishi reaksiya tezligini susaytiradi, Ca^{2+} ta'sirida aksincha reaksiya tezligi oshadi.

SDG allosterik ferment fosfat, suksinat, fumarat ta'sirida faollashadi, oksaloasetat esa bu fermentning konkurent ingibitori hisoblanadi. ATF sarflanishining jadallashishi hujayrada ADF konsentratsiyasini oshishiga olib keladi, bu esa nafas zanjirida NADH oksidlanishini tezlashtiradi, ya'ni NAD ga bog'liq dehidrogenazalar faolligini oshiradi. ADF/ATF va NADH/NAD^+ nisbati umumiy katabolizm yo'llari reaksiyalari tezligining asosiy modulyatori hisoblanadi (5-rasm).

Uchkarbon kislotalar siklining biokimyoviy funksiyalari

1. Integrativ funksiyasi — Krebs sikli metabolik «kollektor» (yig'uvchi) bo'lib, uglevodlar, lipidlar va oqsillarning katabolik yo'lini birlashtiradi.

2. Energetik funksiyasi — Krebs sikli reaksiyalarining borishi natijasida 1 mol atsetil- KoAning to'liq oksidlanishida 12 mol ATF hosil bo'ladi.


3. Vodород donorlik (vodorod generatorlik) funksiyasi — Krebs sikli nafas olish zanjiri uchun vodorodning asosiy generatori hisoblanadi. Bu siklda 4 juft vodorod atomlari hosil bo'lib, ulardan 3 jufti NAD bilan, bir jufti esa FAD bilan birikadi. Oshqozon shilliq qavati fundal bezlarining hujayralarida vodorod kationlari elektron tashish zanjiriga emas balki xlorid kislota sinteziga sarflanadi. Ushbu jarayon buyrakdagi yig'uv naychalaridagi to'q bo'yalgan hujayralariga ham xos va siydikning kislota-asosli muvozanatini saqlashda ahamiyatga ega.

4. Amfibolik funksiyasi. Limon kislota sikli metabolizmning amfibolik yo'llaridan biri hisoblanadi. Bunda nafaqat energetik substratlarni oxirgi mahsulotlargacha (CO_2 va H_2O) oksidlanish yo'li bilan parchalanishi, balki boshqa metabolik yo'llar uchun substratlarni hosil qilishini o'z ichiga oladi. Ya'ni, Krebs sikli ikki xil funksiyani bajaradi.

a) Katabolik-metabolitlarning oksidlanishi;


b) Anabolik – asetil-KoA va oksalasetatdan birikish reaksiyasi natijasida sitrat hosil bo'lishi (natijada yog' kislotalari va xolesterin), oksaloasetatdan (glyukoneogenez jarayonida) – glyukoza, oksaloasetatdan (transaminlanish jarayonida) – aspartat, α – ketoglutaratdan (transaminlanish jarayonida) – glutamat aminokislotalari, suksinil-KoA dan gem va boshqalar sintezlanadi.

Krebs siklning oraliq mahsulotlarini kamayishi spetsifik fermentativ reaksiyalari tomonidan to'ldirib turiladi. Bu jarayonlar dinamik muvozanatda bo'ladi va ularning konsentratsiyasi mitoxondriyalarda doimiydir. Krebs siklning oraliq mahsulotlar fondini to'ldirib turuvchi reaksiyalar anaplerotik (to'ldiruvchi) reaksiyalar deyiladi. Ularning ichida eng muhimi – piruvatdan oksaloasetat sintezlanish reaksiyasidir. Bu reaksiyani mitoxondrial ferment – piruvatkarboksilaza katalizlaydi:




Piruvatkarboksilaza – murakkab oligomer ferment. Ferment molekulasi biotinli 4 prostetik guruhni tutadi. Biotin oqsil molekulasining lizin qoldiqlari bilan kovalent amid bog'i orqali bog'langan. Agar limon kislota sikli uchun oksaloasetat yoki boshqa oraliq mahsulotlar yetishmovchiligi kuzatilsa, piruvatni karboksillanishi tezlashadi. Bu reaksiyada energiya manbayi

bo'lib ATF xizmat qiladi. Reaksiya 2 bosqichda kechadi. Birinchi reaksiyada CO_2 biotinning azot atomiga birikadi va faollashadi, bu reaksiya ATF gidrolizi bilan kechadi.




Ikkinchi bosqichda faollashgan karboksil guruh piruvatga o'tkaziladi.



Piruvatkarboksilaza boshqarilishi. Piruvatkarboksilazaning allosterik aktivatori atsetil-KoA hisoblanadi. Uning miqdorini ortishi oksaloatsetat hosil bo'lishini jadallastiradi va Krebs sikli reaksiyalari ham tezlashadi.

Sitrat siklining metabolitlari yog' kislotalari, steroidlar va boshqa birikmalar sintezi uchun vodorod donori bo'lib xizmat qiladi. Masalan, NADF ga bog'liq malat- va izositratdehidrogenazalar. Malat mitoxondriyadan sitozolga chiqadi va NADFga bog'liq dehidrogenaza (malik-ferment) ta'sirida quyidagi reaksiyani katalizlaydi:



Malat va izositrat qaytarilish jarayonlarida NADFH₂ ning bir qismini hosil qiladi, NADFH₂ ning asosiy qismi glyukoza parchalanishining pentozofosfat yo'lida hosil bo'ladi.

Uchkarbon kislotalar siklining energetik ahamiyati

Uchkarbon kislotalar 1 siklida 2CO_2 (izositratni α -ketoglutaratga va α -ketoglutaratni suksinil-KoAga aylanishida) hosil bo'ladi. Sitrat siklining 4 reaksiyasida dehidrogenlanish kuzatiladi va qaytarilgan kofermentlar: 3 molekula $\text{NADH} + \text{H}^+$ va 1 molekula FADH_2 hosil bo'ladi. Shu bilan birga 2 molekula suv sarflandi (sitrat hosil bo'lishida va fumarat gidratatsiyasida). Limon kislota siklida hosil bo'lgan qaytarilgan kofermentlar (3 molekula NADH_2 va 1 molekula FADH_2) vodorodni nafas olish zanjiriga

beradi va kislorodga o'tkazadi. Qaytarilgan kislorod suvni hosil qiladi. Har bir NADH_2 molekulasini nafas olish zanjirida oksidlanishida 3 molekula ATF, har bir FADH_2 molekulasidan 2 molekula ATF hosil bo'ladi. Shunday qilib, har bir limon kislota sikli aylanishida oksidlanish-fosforlanish yo'li bilan 11 molekula ATF sintezlanadi. 1 molekula ATF substrat fosforlanish yo'li bilan sintezlanadi. Jami, 1 molekula atsetil-KoA ning Krebs siklida oksidlanishida 12 molekula ATF hosil bo'ladi.

Savollar:

1. Krebs siklining vazifalari nimadan iborat?
2. Krebs siklining 1-reaksiyasi qanday boshqariladi?
3. Krebs siklining 3-reaksiyasi qanday boshqariladi?
4. Krebs siklining 4-reaksiyasi qanday boshqariladi?
5. Krebs siklining 5-reaksiyasi qanday boshqariladi?
6. Krebs siklining 6-reaksiyasi qanday boshqariladi?
7. Krebs siklida nechta ATF ajraladi?
8. Krebs siklining qaysi reaksiyasi mitoxondriya ichki membranasida o'tadi?

Energiya almashinuvi, biologik oksidlanish to'g'risida tushuncha

Tirik organizmlar tashqi muhit bilan doimo uzviy bog'liqlikda bo'ladi. Bu bog'liqlikni modda almashinuvi jarayonida ko'rishimiz mumkin. Oldingi mavzularda qayd etganimizdek, modda almashinuvi 3 bosqichdan iborat: ozuqa mahsulotlarni organizmga kiritilishi, metabolizm va oxirgi mahsulotlarni ekskretsiyasi. Moddalarni organizmga kiritilishi nafas olishi (kislorod) va ovqatlanish hisobiga kechadi. Oshqozon-ichak yo'llarida ozuqa mahsulotlar monomerlargacha parchalanadi, ular qon va limfaga so'rilib to'qima va a'zolarga yetib boradi va hujayralarda oraliq metabolizmga kirishadi. Oraliq metabolizm (hujayra ichi metabolizmi) 2 turdagi reaksiyalarni: katabolizm va anabolizmi o'z ichiga olinishi aytib o'tilgan edi.

Tirik organizmlar termodinamik jihatdan ochiq tizimdir. Tizim bilan tashqi muhit orasida termodinamika qonuniyatlariga asoslangan holda energiya almashinuvi kechadi. Organizmga tashqaridan kiruvchi yoki tirik materiya tarkibiga kiruvchi organik birikma ma'lum bir miqdorda ichki energiya zaxirasiga ega (E), uning bir qismi ish bajarish uchun sarflanishi mumkin. Tizimning bunday energiyasi erkin energiya deb ataladi (G).

Doimiy temperatura va bosimda tizimning erkin energiyasi (ΔG) va entropiyaning (ΔS) o'zgarishi orasida quyidagi tenglamani yozish mumkin:

$$\Delta G = \Delta H - T\Delta S$$

bunda: ΔH – entalpiyani (tizimdagi ichki energiyasi yoki is-siqligi) o'zgarishi; T – absolyut temperatura. Biokimyoviy reaksiyalarda ΔH taxminan ΔS (reaksiya natijasida tizimning ichki energiyasini o'zgarishi)ga teng. Biologik tizimlarning erkin energiyasini aniqlash standart holatlarda olib boriladi (pH 7,0 temperatura $25^{\circ}C$, barcha eritmalar konsentratsiyasi 1 mol/l, gazlar esa 1 atm. bosimida). Standart holatda barcha funksiyalar ΔG^0 , ΔS^0 va ΔH^0 ko'rinishida bo'ladi. Standart erkin energiya o'zgarishini (ΔG^0) hisoblash uchun kimyoviy reaksiya muvozanati konstantasini (K) bilish kerak.


Kimyoviy reaksiyaning yo'nalishi ΔG ko'rsatkichiga bog'liq. Agar bu ko'rsatkich manfiy bo'lsa, reaksiya o'z-o'zidan kechadi va erkin energiyani kamayishi bilan boradi. Bunday reaksiyalar ekzergonik reaksiyalar deyiladi. Agar bunda ΔG absolyut ko'rsatkichi yuqori bo'lsa, reaksiya oxirigacha davom etadi va qaytmas bo'ladi. Agar ΔG musbat bo'lsa reaksiya faqat tashqaridan erkin energiya kiritilishi natijasida kechadi; bunday reaksiyalar endergonik reaksiyalar deyiladi. Agar ΔG absolyut ko'rsatkichi yuqori bo'lsa, bu tizim turg'undir va reaksiya kechmasligi mumkin. Agar ΔG nolga teng bo'lsa tizim muvozanatda bo'ladi (2-jadval).

Kimyoviy reaksiyaning yoʻnalishi ΔG koʻrsatkichiga bogʻliqligi

K	ΔG^0	Komponentlar konsentratsiyasi 1 mol boʻlganda reaksiya yoʻnalishi
>1.0	Manfiy	Chapdan oʻngga
1.0	Nolga teng	Turgʻun holat
<1.0	Musbat	Oʻngdan chapga

Biologik tizimlarda termodinamik jihatdan mukammal boʻlmagan endergonik reaksiyalar faqat tashqi energiya hisobiga, yaʼni ekzergonik reaksiyalar energiyasi hisobiga, kechishi mumkin. Bunday reaksiyalar energiyaga bogʻliq reaksiyalar hisoblanadi. Bunday reaksiyalarning koʻpchiligi bogʻlovchi omil – adenzinuchfosfat (ATF) hisobiga kechadi (7-rasm).

ATF-HUJAYRANING UNIVERSAL ENERGIYA MANBAYI




7-rasm. Adenzin trifosfat

Toʻqimalarda organik moddalarning katabolizmi kislorod ishtirokida CO₂ ajralishi bilan kechadi. Bu jarayon toʻqima nafas olishi deb ataladi. Kislorod bu jarayonda oksidlanayotgan (parchalanayotgan) moddadan (substratlardan) vodorod akseptori vazifasini bajaradi va natijada suv hosil boʻladi.

Oksidlanuvchi turli xil organik moddalar (S – substratlar) katabolizmning mahsulotlari boʻlib, ularning parchalanishi ekzoergik jarayon hisoblanadi. Oksidlanish natijasida ajralayotgan energiya issiqlik sifatida tarqalishi mumkin, yoki qisman ADF

fosforillanib ATF hosil bo'lishiga sarflanishi mumkin. Organizm oksidlanayotgan moddalardan ajralayotgan energiyasining taxminan 40% ATF makroergik bog'lar energiyasiga aylantirishi mumkin. Biosferadagi ko'pchilik organizmlar asosiy energiya manbai sifatida shu yo'ldan foydalanadi.

Bu yo'l bilan tashqaridan tushgan ozuqa mahsulotlaridagi kimyoviy energiyani hujayralar metabolik faol energiyaga aylantiradi. Degidrogenlanish reaksiyalari va hosil bo'lgan energiya hisobiga ATF sintezi energetik jihatdan uzviy bog'langan reaksiyalar hisoblanadi. Bu ATFning oksidlanishli fosforillanishi deb nomlanadi.



8-rasm. Energiya almashinuvi

Yuqorida keltirilgan tenglamalardagi oksidlanish-qaytarilish reaksiyalari umumiy shaklni ifodalaydi, chunki bu jarayon substratlarni to'g'ridan to'g'ri degidrogenlanishi hisobiga kechadi va bunda kislorod vodorod akseptori vazifasini o'taydi. Ammo kislorod hujayralarda proton va elektronlarni tashilishida qatnashadi.

Biologik oksidlanish yoki to'qima nafas olishi deb to'qimalarda organik moddalarni kislorod ishtirokida parachalanishi va karbonat angidridini ajralishiga aytiladi. Bunday oksidlanish

jarayonida energiya ajralib chiqadi va o'z tabiatiga ko'ra ekzergonik jarayon hisoblanadi.


Biologik oksidlanish nazariyalari



Antuan Loran Lavuazyé

A.L. Lavuazyé (1727-y.) «Oksidlanish-yonish» nazariyasida: nafas olish jarayonida O_2 , C va H_2 bilan birikib, CO_2 va H_2O hosil bo'ladi, bunda energiya ajraladi. Bu energiya miqdori organizmda va undan tashqarida bir xil. Ammo yonish jarayonidan farqli o'laroq, biologik oksidlanish past haroratda, alangasiz va suv ishtirokida boradi. Shuni aytish

joizki, O_2 inert gaz bo'lib reaksiyaga to'g'ridan to'g'ri kirishmaydi. Bu jarayon mexanizmini yoritib berishda bir necha nazariyalar yaratilgan:



Aliksey Nikolayevich
Bax

A.N. Bax (1897-y.) «Aktivlashgan kislorod-peroksid»li nazariyasi. Bu nazariyaga ko'ra yengil oksidlanuvchi moddalar ta'sirida kislorod molekulasining ikkala bog'i emas, balki bitta bog'i uziladi, so'ngra kislorod molekulasini to'liq oksidlanayotgan modda bilan birikib, oraliq mahsulot sifatida peroksid hosil bo'ladi.

Bu esa peroksidaza fermenti ta'sirida parchalanadi va oksidlangan modda hosil bo'ladi.

Bu nazariyaning kamchiligi anaerob organizmlarda oksidlanish-qaytarilish jarayonlarini aniqlash imkonini bermaydi.



Palladin Vladimir
Ivanovich

V.I. Palladin (1908-y.), G.O. Viland (1877-y.) «Vodorodni faollanishi» nazariyasi. Bu nazariyaga ko'ra metabolitlar oksidlanishi, oksidlanayotgan moddadan spetsifik

degidrogenazalar ta'sirida H_2 ajraladi. Palladinning fikriga ko'ra H_2 xromogenlar bilan birikadi, Vilandning fikricha esa O_2 bilan birikadi. Bu bir vaqtini o'zida substratni oksidlanishi va pigmentni qaytarilishi bilan kechadi. Shuning uchun bu jarayon oksidlanish-qaytarilish jarayoni hisoblanadi.



Biologik oksidlanishni zamonaviy nazariyasi

O.G. Varburg (1983-y.), **A. Sent-D'erdyi** (**Gyorgyi**) (1893-y.) «**Elektrolitik**» nazariyasi. Bu kislorod molekulasini oksidlangan molekula yordamida faollanishidir. Varburgning fikricha oksidlovchi modda bo'lib gemin fermentlari molekulasida tarkibiga kiruvchi Fe^{+3} atomi hisoblanadi. Bu nazariyaga ko'ra oksidlanish-qaytarilish jarayonlari elektron va protonlarni ajralishi va birikishi natijasida sodir bo'ladi va oxirida aktivlangan kislorod proton bilan birikib suvni hosil qiladi.

Bu nazariyaga asosan to'qimada metabolitni oksidlanishi bir yo'la proton va elektronlarni ajralishi va ularni kislorod molekulasiga kiritilishi bilan boradi. Ammo elektron va protonlar to'g'ridan to'g'ri kislorod bilan birikmay, balki spetsifik fermentlar va kofermentlar orqali uzatiladi.

Oksidlanayotgan SH_2 moddadan terminal akseptorga (O_2) proton va elektronlarni o'tkazishda oraliq tashuvchilar qatnashadi. Bu to'liq jarayon ketma-ket kechadigan oksidlanish-qaytarilish jarayonlarini o'z ichiga oladi va bunda tashuvchilar orasida o'zaro bog'lanishlar kechadi. Har bir oraliq tashuvchi elektron va protonlar akseptori




Albert Sent-D'erdyi



Otto Genri Varburg

sifatida qatnashadi va oksidlangan holatdan qaytarilgan holatga o'tadi. So'ng u proton va elektronlarini keyingi tashuvchiga beradi va o'zi yana oksidlangan holatga o'tadi. Oxirgi bosqichda tashuvchi elektronlarni kislorodga beradi va suv hosil bo'ladi. Ya'ni, SH_2 – proton va elektronlar boshlang'ich donori; P – oraliq tashuvchilar; E1, E2, E3, E4, E5 – oksidlanish-qaytarilish reaksiyalari fermentlari (6-rasm). Hujayralarda organik moddalarni kislorod hisobiga oksidlanishi va suvni hosil bo'lishi – to'qima nafas olishi deyiladi, elektronlar tashish zanjiri (ETZ) esa – nafas olish zanjiri deb ataladi:



9-rasm. Elektronlar tashish zanjirida elektron va protonlar harakati: SH_2 – proton va elektronlar boshlang'ich donori; P – oraliq tashuvchilar; E1, E2, E3, E4, E5 – oksidlanish-qaytarilish reaksiyalari fermentlari

Biologik oksidlanish fermentlari

Spetsifik degidrogenazalar ta'sirida metabolitlarni fermentativ oksidlanishi jarayonida energiya ajralishi kuzatiladi. Degidrogenlanish reaksiyalarida organik substratlardan proton va elektronlar NAD- va FAD-bog'li degidrogenazalar kofermentlariga o'tkaziladi. Yuqori energetik potensialga ega bo'lgan elektronlar qaytarilgan NADH_2 va FADH_2 kofermentlardan mitoxondriyalarning ichki membranasida joylashgan nafas olish zanjiri tashuvchilari orqali kislorodga o'tkaziladi. Kislorod molekulasining qaytarilishi 4 elektronni tashilishi hisobiga kechadi. Kis-

lorod 2 elektronni birikishida matriksdan 2 protonni yutilishi kuzatiladi va natijada suv hosil bo'ladi.

Nafas olish zanjiri bo'ylab elektronlarni o'tishida erkin energiyasi kamayib boradi. Uning asosiy qismi ATF shaklida zaxiralanadi, qolgan qismi esa issiqlik energiyasi sifatida tarqaladi. Turli xil substrantlarni oksidlanishi natijasida hosil bo'lgan yuqori energetik potensialga ega bo'lgan elektronlar biosintez reaksiyalarida qatnashishi mumkin. Bunda ATF tashqari qaytarilgan ekvivalentlar, masalan NADPH_2 zarur bo'ladi.



Oksidlanayotgan substratdan elektronlarni kislorodga o'tkazishi bir necha bosqichda kechadi. Bunda juda ko'p oraliq tashuvchilar qatnashib, har biri elektronlarni oldingisidan olib keyingisiga o'tkazishi mumkin. Buning natijasida ketma-ket kechadigan oksidlanish-qaytarilish reaksiyalar zanjiri hosil bo'ladi. Buning natijasida kislorod qaytariladi va suv hosil bo'ladi.

Ubixinondan (KoQ) tashqari nafas olish zanjirining barcha komponentlari — oqsillardir. Bu oqsillar tarkibiga turli xil oqsil bo'lmagan birikmalar kiradi: FMN, temir-oltingugurt oqsillar tarkibida Fe, porfirin halqasida Fe va Cu ionlari.

Oksidlanish-qaytarilish reaksiyalarining birlamchi akseptorlariga 2 xil degidrogenazalar: nikotinamidga bog'liq (PP vitamini hosilalari kofermentlari) va flavinga bog'liq (riboflavin hosilalari) kiradi.

Nikotinamidga bog'liq degidrogenazalar NAD^+ yoki NADF^+ kofermentlarini tutishi mumkin. Bu kofermentlar degidrogenazalarning faol markaziga kiradi, shu bilan birga ular reaksiya natijasida xolofermentdan qaytar dissosiativlanishi mumkin. NAD^- va NADF^- bog'li degidrogenazalar substratlari mitoxondriyalarning matriksida va sitozolda bo'lishi mumkin. Nikotinamidli kofermentlarning ishchi qismi nikotinamid hisoblanadi:

Nafas olish zanjiriga elektronlarni yetkazib beruvchi degidrogenazalar NAD^+ tutadi. Ular quyidagi turdagi reaksiyalarni katalizlaydi:




Shunday qilib, NAD^+ turli xil substratlarning proton va elektronlarini qabul qilib, oksidlanayotgan moddalarning asosiy energiya kollektori va nafas olish zanjiri uchun yuqori energetik potensialga ega bo'lgan elektronlar manbai hisoblanadi.

$NADPH$ nafas olish zanjiriga elektronlar donori bo'lib hisoblanmaydi va faqat qaytarilishli sintetik jaoayonlarda qatnashadi. Ba'zi hollarda $NADPH$ elektronlar nafas olish zanjiriga elektronlar berishi mumkin. Bu reaksiyalarni piridinnukleotidtranshidrogenazalar katalizlaydi:



Flavinga bog'liq dehidrogenazalarning kofermenti bo'lib FAD (flavinadenindinukleotid) yoki FMN (flavinmononukleotid) hisoblanadi. Organizmda bu kofermentlar vitamin B_2 dan hosil bo'ladi. Flavinli kofermentlar apoferment bilan murakab kovalent bog'langan. Bu kofermentlarning ishchi qismi izoalloksazin halqasi hisoblanadi:



FAD ko'pchilik substratlarning elektronlar akseptori bo'lib xizmat qiladi va quyidagi turdagi reaksiyalarda qatnashadi:




E – fermentning oqsil qismi.

Ko'pchilik FAD-bog'li dehidrogenazalar – suvda eriydigan oqsillardir, ular asosan mitoxondriyalarning matriksida joylashgan. Faqatgina suksinat-dehidrogenaza mitoxondriyalarning ichki membranasida joylashgan. FMN-tutuvchi fermentlarga mitoxondriyalarning ichki membranasida joylashgan NADH-dehidrogenaza kiradi, u mitoxondrial matriksda hosil bo'luvchi NADH₂ ni oksidlaydi.



Elektronlarni NADH₂ dan O₂ tashuvchilarning barchasi mitoxondriyalarning ichki membranasida joylashgan. Ubixinon va sitoxrom c lardan tashqari, qolgan barchasi murakkab oqsilli komplekslaridir.

NADH₂-dehidrogenaza NADH-Q-reduktaza, kompleks I bir necha polipeptid zanjiridan iborat. FMN uning prostetik guruhi hisoblanadi. Bu fermentning yagona substrati – NADH₂, undan 2 elektron va proton FMN ga o'tkaziladi va FMNH₂ hosil qiladi. Uning ikkinchi protoni matriksga ajraladi. Reaksiya quyidagi tenglama asosida kechadi:




FMNH₂ elektronlar temir-oltingugurtli oqsillariga (FeS) o'tkaziladi. Bu oqsillar NADH₂-dehidrogenaza molekulasida ikkinchi prostetik guruh vazifasini o'taydi. Bu oqsillardagi temir atomlari (gem bo'lmagan temir) bir necha guruhlariga yig'ilib, temir-oltingugurt markazlarini hosil qiladi.

FeS-markazlar oksidlanish-qaytarilish reaksiyalarida qatnashuvchi ko'pchilik oqsillar (flavoproteidlar, sitoxromlar) tarkibiga kiradi. Hozirgacha 3 turdagi FeS-markazlar (FeS, Fe₂S₂, Fe₄S₄) aniqlangan. Ularda temir atomi sisteindagi oltingugurt, yoki anorganik oltingugurt bilan bog'langan.



NADH-degidrogenaza Fe₂S₂ va Fe₄S₄ turdagi bir necha markazlarni tutadi. Bu markazlardagi temir atomlari elektronlarni ketma-ket qabul qilishi va berishi mumkin, bunda ular ferro- (Fe²⁺) va ferri- (Fe³⁺) holatdarga o'tib turishi mumkin. Temir-oltingugurt oqsillardan elektronlar **koferment Q (ubixinon)** o'tkaziladi.

UBIXINON - KOENZIM Q



Bu yog'da eruvchi xinonning (*quinone*) nomi ingliz so'zining birinchi harfidan olingan, ubixinon so'zi esa tabiatda keng tarqalgan ma'nosini bildiradi (*ubiquitous* – mavjud). Ubixinon molekulari olingan manbalarga va uglerod zanjirlarining uzunligiga qarab farqlanadi. Sut emizuvchilardan olinganlari 10 izoprenoid zanjirlarini tutadi va Q₁₀ deb belgilanadi. NADH-degidrogenazalardan FeS orqali elektronlar ubixinonga o'tkaziladi va natijada gidroxinon hosil bo'ladi. Ubixinon NADH-

degidrogenazalar va boshqa flavinga bog'liq degidrogenazalardan, jumladan suksinatdegidrogenazadan elektronlar qabul qilgani sababli kollektorlik funksiyasini bajaradi. Ubixinon quyidagi turdagi reaksiyalarda qatnashadi:



Sitoxromlar yoki gemoproteidlar barcha turdagi organizmlarda uchraydi. Eukariot hujayralarda ular asosan mitoxondriyalar membranasi joylashgan. 30 yaqin turli xil sitoxromlar mavjud. Barcha sitoxromlar tarkibiga prostetik guruh sifatida gem kiradi. Ularning turli-tumanligi quyidagilarga bog'liq:

- Gem strukturasi turli xil yon zanjirlarning bo'lishi;
- Polipeptid zanjirlar strukturasi turli xilligi;
- Gemni polipeptid zanjiri bilan turlicha bog'lanishi.

Nurlarni yutish qobiliyatiga qarab sitoxromlar a, b, c turlariga bo'linadi. Har bir turning ichida o'ziga xos spektral xususiyatlarga ega bo'lgan sitoxromlar bo'lib, ular raqamlar bilan belgilanadi (b, b₁, b₂ va boshqalar).

Turli xil sitoxromlarning struktur xususiyatlari ularning oksidlanish-qaytarilish xususiyatlarini belgilaydi. Mitoxondrial nafas olish zanjirida 5 xildagi sitoxromlar bor (a, a₃, b, c, c₁). Sitoxrom c mustasno, barcha sitoxromlar ichki mitoxondrial membranada murakkab komplekslar shaklida joylashgan.


QH₂-degidrogenaza (koenzim Q-sitoxrom c-reduktaza, kompleks III) 2 turdagi sitoxromlardan (b₁ va b₂) va sitoxroma c₁ tashkil topgan. QH₂-degidrogenaza ubixinondan elektronlarni sitoxrom c o'tkazadi. III kompleksning ichida elektronlar sitoxrom b dagi FeS-markazlardan sitoxrom c₁, so'ng sitoxrom c o'tkaziladi. Gem guruhlari, FeS-markazlar kabi, faqat bittadan elektron o'tkazadi. Shunday qilib, QH₂ molekulasidan 2 elektron sitoxrom b 2 molekulasiga o'tkaziladi. Bu reaksiyalar natijasida erkin radikalli oraliq mahsulot semixinon hosil bo'lishi mumkin. Sitoxrom b turida gem oqsil bilan kovalent bog'lanmagan, sitoxrom c₁ va c gem oqsil molekulasiga tioefir bog'lari bilan

bog'langan. Bu bog'lar 2 sistein qoldig'iga gemning vinil guruhlarini qo'shilishidan hosil bo'ladi

3-jadval

Mitoxondrial elektronlar tashilishi zanjiri komponentlari

Nomi	Prostetik guruh	e-donori	e-akseptori
NADH-degidrogenaza kompleks I	FMN, FeS	NADH	KoQ
Koenzim Q, ubixinon		Kompleks I	Kompleks III (bc1)
QH2- degidrogenaza, kompleks III	FeS, gem b1 ₍₅₆₂₎ , gem b2 ₍₅₆₆₎ , gem c1	Kompleks III	Kompleks IV
Sitoxromoksidaza, kompleks IV	Gem A Cu ²⁺	Sitoxrom c	O ₂
Suksinatdegidrogenaza, kompleks II	FAD, FeS	Suksinat	KoQ




Gem

Sitoxrom c — suvda eruvchi periferik membrana oqsilidir, molekulyar massasi 12500 D, 100 aminokislotalar qoldig'ini tutuvchi 1 polipeptid zanjiri va kovalent bog'langan 1 gem molekulasidan iborat.

Filtr qog'oz ustidagi har ikkala mushak qiymasiga 1–2 tomchi «Nadi» indofenol reaktivi tomiziladi. 5–10 daqiqa o'tgach, mushak qiymasining biri ko'kimtir-binafsha rangga bo'yaladi. Ushbu rang sitoxromoksidaza fermentining n-fenilendiamin va α -naftolni oksidlangan indofenol birikmasini hosil bo'lish reaksiyasini tezlatganini isbotlaydi. Qaynatilgan mushak qiymasida ferment faolligi to'xtatilgan. Shu bois mushakning bu qismida reaksiya sodir bo'lmaydi.

Olingan natijalarni rasmiylashtirish. Olingan natijalar oldingi ishda berilgan jadvalga muvofiq rasmiylashtiriladi.

4-laboratoriya ishi. Yurak mushaklaridan ajratilgan oksidlangan va qaytarilgan sitoxrom c spektrlarini aniqlash

Elektronlarni o'tkazish zanjirida 5 turdagi sitoxrom ishtirok etadi (B , C , C_1 , A va A_3). Ular temir tutuvchi oqsillar bo'lgani uchun nur yutishiga ko'ra aniqlanadi. Qaytarilgan sitoxrom c sarg'ish-yashil nur uzunligida (550 nm) aniqlanadi. Oksidlangan sitoxrom esa bu uzunlikda bo'lmaydi.

Tekshiriluvchi material: yurak mushagidan ajratilgan sitoxrom S .

Reaktivlar: gektsianoferrat (II) kaliyning 0,1 mol/l eritmasi, natriy gidrosulfat tuzi (quruq kukuni).

Kerakli anjomlar: 0,6–0,8 sm diametrli probirkalar, spektroskop.

Bajariladigan ish tartibi. Bir ml sitoxrom solingan probirkaga eritmadagi barcha ferment molekularini oksidlash uchun 0,01 mol/l kaliy (III) gektsianoferrat eritmasidan 0,3 ml solinadi. Eritmaning spektri spektroskop yordamida aniqlanadi. Spektrning sarg'ish-yashil qismida nur yutilishi kuzatilmaydi.

Xuddi shu probirkadagi eritmaga bir necha dona natriy gidrosulfat kukuni solinadi. Sitoxrom c qaytariladi. Spektroskopda ikkita nur yutish yo'li ko'rinadi. Ularning biri sarg'ish-yashil (540 nm) qismida, ikkinchisi – yashil qismida (520 nm).

Olingan natijalarni rasmiylashtirish. Usulning asosini va sitoxrom c ning oksidlangan va qaytarilgan shakllarini, nur yutgan qismini daftaringizga chizing.

5-laboratoriya ishi. Mushakdagi makroergik birikmalarning miqdori (ATF va kreatinfosfat)ni aniqlash

Mushak to'qimalarida ikki xil makroergik birikma uchraydi. Ular ATF va kreatinfosfatdir. Ular muskullarni qisqarishi uchun kerak darajadagi energiya bilan ta'minlaydi.

Usulning asoslanishi. ATF va kreatinfosfat tarkibidagi fosfor qoldig'i kislotali gidrolizlanganda oson ajraladi. Nazorat tajribada gidrolizgacha bo'lgan fosfor miqdori va gidrolizdan so'ng aniqlangan fosfor (tekshiriluvchi tajriba) miqdorini solishtirish yo'li bilan kuchsiz bog'langan fosfor miqdorini o'lchash mumkin. Ajralgan fosfor miqdori ammoniy molibdatning askorbin kislota ishtirokida bergan rangli reaksiyasi asosida aniqlanadi.

Tekshiriluvchi material: yangi olingan mushak to'qimasi.

Reaktivlar: uchxlorsirka kislolaning (UXSK) 2,5 li eritmasi, xlorid kislolaning 1 mol/l eritmasi, natriy gidroksidning 1 mol/l eritmasi, ammoniy molibdatning 1% li eritmasi, askorbin kislolaning 1% li eritmasi.

Kerakli anjomlar: probirkalar, shtativlar, pipetkalar, voronkalar, filtr qog'oz, 10 ml li o'lchov probirkasi yoki silindr, muz yoki suv hammomi, FEK, 1 sm qalinlikdagi kyuvetalar.

Bajariladigan ish tartibi. 0,5 g mushak qiymasi solingan probirka muz hammomiga qo'yiladi, ustiga sovitilgan UXSK eritmasidan 5 ml solinadi. Probirkadagi suyuqlik shisha tayoqcha bilan ATFni ajratib olish uchun aralashtiriladi. Bunday usul bilan kreatinfosfat ham ajraladi. Suyuqlik 5 daqiqa davomida aralashtiriladi. Olingan aralashma muzga joylashtirilgan probirkada filtrlanadi.

Qolgan mushak qiymasiga yana 5 ml distillangan suv solib, past haroratda 5 daqiqa davomida makroergik birikmalarni ajratish davom ettiriladi. Olingan ekstrakt suyuqlik hajmi distillangan suv bilan 10 ml ga yetkaziladi.

Ikkita probirkaga oqsilsiz filtratdan 0,5 ml solinadi. Uning biri nazorat tajriba, ikkinchisi tekshiriluvchi tajribadir.

Tekshiriluvchi probirkaga vodorod xloridning 1 mol/l eritmasidan 1 ml solib, usti zar qog'oz bilan berkitiladi va fosfor bog'larini uzish maqsadida qaynab turgan suv hammomida 10 daqiqa qizdiriladi. Suyuqlik sovitilgandan so'ng natriy gidroksidning 1 mol/l eritmasidan 1 ml solinadi. Nazorat probirkasiga esa suyuqlikni qaynatmay turib vodorod xlorid va natriy gidroksid eritmalaridan 1 ml dan solinadi.

Tekshiriluvchi va nazorat probirkalariga suyuqliklarning hajmi 10 ml ga yetguncha distillangan suv solinadi (7,5 ml).

Keyingi ishlar tekshiriluvchi va nazorat tajribalar uchun bir vaqtda olib boriladi. Ikkala probirkadan 5 ml dan suyuqlik olib, boshqa probirkalarga solinadi. Ularning har biriga ammoniy molibdat eritmasidan 0,5 ml, askorbin kislotadan 0,5 ml va 2 ml distillangan suv solinadi. Suyuqliklar aralashtirilib, 10 daqiqaga uy haroratida qoldiriladi.

Nazorat va tekshiriluvchi suyuqliklar FEK ning qizil nur filtrida (670 nm to'liq uzunligida) ko'riladi. Tekshiriluvchi probirkada aniqlanayotgan anorganik fosfat (gidrolizdan keyin) bo'sh bog'langan fosfat kislotasi va fosfat tuzlarining yig'indisi hisoblanib, nazorat tuzlaridan iboratdir.

Tekshiriluvchi suyuqlik uchun topilgan optik zichlik ko'rsatkichidan nazorat uchun topilgan optik zichlik ko'rsatkichi ayriladi. Bo'sh bog'langan anorganik fosfatning tekshiriluvchi tajriba uchun olingan miqdori oldindan tayyorlangan o'lchov egri chizig'idan topiladi.

Hisoblash: Bo'sh bog'langan fosfat miqdori 100 g mushak uchun mg da suyultirish e'tiborga olingan holda hisoblanadi.

$$\sim x = A - 3,3400 - 100$$

Bunda: x – 100 g to'qima uchun 1 mg ATF hisobida olingan makroergik birikmalarning miqdori (mg 100g), A – 3,3400 – suyuqlikning suyultirilgan darajasi hisobga olingan holda 1g to'qima uchun hisoblash koeffitsienti.

Olingan natijalarni rasmiylashtirish. Usulning asosi va natijasi daftarga yoziladi va tegishli xulosa chiqariladi.

6-laboratoriya ishi. Qon tarkibidagi ATF-aza faolligini aniqlash

Adenozintrifosfat (ATF-aza) fermenti ATF ni suv ishtirokida parchalab, energiya ajralishini tezlatadigan reaksiyani katalizlaydi.

Usulning asosi. Yorilgan eritrotsitlar tarkibidagi ATF-aza ATF ni ADF va anorganik fosfatgacha parchalaydi. Ajralgan anorganik fosfat esa ammoniy molibdat bilan rangli mahsulot hosil qiladi. Rangning zichligi ATF miqdoriga to'g'ri keladi.

ATF-aza fermentining faolligi yangi tug'ilgan bolalarda kuza-tiladigan gemolitik anemiyada, leykozda, bronxial astmada, nafas yo'larining yallig'lanishi va raxit kasalliklarida odatdagidan bir necha barobar ortib ketadi.

**ATF-aza faolligining yoshga nisbatan o'zgarishi
(mkg/l ml eritrotsit hisobida)**

Yangi tug'ilgan bolalarda	1 yosh-gacha	3 yosh-gacha	4-7 yosh-gacha	11-13 yoshda	14-16 yoshda	17 yosh-dan yuqori
308	196	16b	128	147	108	108

Tekshiriluvchi material: qon eritrotsitlari.

Reaktivlar: UXSKning 2,5% N eritmasi, vodorod xloridning 1 mol/l eritmasi, natriy gidroksidning 1 mol/l eritmasi, ammoniy molibdatning 1% li eritmasi, askorbin kislotaning 1% li eritmasi.

Kerakli anjomlar: shtativ, probirkalar, 1-2 ml li pipetkalar, FEK, termostat yoki suv hammomi.


Bajariladigan ish tartibi. Ikki probirkaning biriga eritrotsitlari yorilgan (gemolizlangan) qondan 1 ml, ikkinchisiga distillangan suvdan 1 ml solinadi. Ularga 0,1 mol/l li ATF eritmasidan 1 ml dan solinadi. Probirkadagi suyuqliklar aralashtrilib, bir so-at 37°C li termostatda yoki suv hammomida saqlanadi. Bir ozdan so'ng oqsillarni cho'ktirish uchun probirkalarga 0,5 ml UXSK eritmasidan solinadi va suyuqliklar filtrlanadi. Filtr ostidagi suyuqlikka 1 ml ammoniy molibdat eritmasi quyiladi va aralashma 10-20 daqiqa termostat yoki suv hammomiga joylashtiriladi. Hosil bo'lgan rang zichligi FEKning qizil nur filtri qarshisida o'lchanadi. Tekshiriluvchi va nazorat tajribalar uchun topilgan optik zichlik ko'rsatkichlarining farqi aniqlanadi. Ferment faol-

ligining darajasi oldindan tayyorlangan o'lchov egri chizig'idan topiladi. O'lchov egri chizig'ini tayyorlash uchun turli miqdordagi ATF eritmasidan foydalaniladi.

Olingan natijalarni rasmiylashtirish. Natijalarni daftaringizga yozib, tegishli xulosa chiqaring.

7-laboratoriya ishi. Kreatinkinaza fermenti faolligini aniqlash

Kreatinkinaza fermenti asosan mushak to'qimalarida joylashgan bo'lib, yengil qaytar reaksiya: ATF dagi fosfat qoldiqni kreatinga va kreatinfosfatdan ADF ga o'tkazishni katalizlaydi. Kreatinfosfatning parchalanishidan hosil bo'lgan fosfat ioni oqsildan tozalangach, sariq rangli fosfor ammoniy molibden kompleks birikmasi shaklida aniqlanadi, chunki ushbu ferment kreatinfosfatdagi fosforni ADF ga yengil o'tkaza oladi.



Kreatinkinaza organizmda mushaklar qisqarishini energiya bilan ta'minlashda ishtirok etadi, ayniqsa mushaklarning faol qisqarishi jarayonida energiyaga bo'lgan talab ortadi.

Mushaklar faol ishlaganda, isitmalaganda, uzoq muddat och qolganda, qandli diabetda, vitamin E yetishmasligida, mushaklar shikastlanganda, gipoteriozda, markaziy nerv sistemasi kasalliklarida, yurak infarktida qon zardobida kreatinkinaza fermentining faolligi birmuncha ortadi. Mushaklar faoliyati susayganda (miopatiya, mushaklar distrofiyasida) ferment faolligi susayadi.

Kreatinkinaza fermenti faolligini aniqlash shifokorlarning amaliy ishida katta ahamiyatga ega. Ferment faolligi turli usullar bilan aniqlanadi. Berilayotgan usul tayyor reaktivlar yig'indisi bilan ishlashga asoslangan.

Usulning asosi. Kreatinfosfatning parchalanishidan hosil bo'lgan fosfat kislotaning kompleks birikmasi aniqlanishiga asoslangan. Birikma sariq rang hosil qiladi.

Tekshiriluvchi material: qon zardobi.

Reaktivlar: tayyor reaktivlar yig'indisidan foydalaniladi:

Bolalar qon zardobi tarkibidagi kreatinkinaza fermentining yoshga qarab o'zgarishi

Bolalarning yoshi	Qon zardobidagi kreatinkinaza faolligi	
	Mkmol/min-1	Mkmol/min-1
Yangi tug'ilganlarda	180	3,0
3 haftadan 3 oygacha	91	1,5
3 oydan 1 yoshgacha	66	1,1
3-6 yoshlarda	62-59	1,03-0,98
Kattalarda	46	0,77

Idishdagi 0,670 g substrat 80°C gacha isitilgan bidistillangan suvning 10 ml da eritiladi. Eritma sovutilgach, yana 15 ml bidistillangan suv solinadi va aralashtiriladi. Eritma sovuqda saqlanadi. Eritmaning xiralanishi ferment faolligiga ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun eritma filtrlanishi kerak.

Buf eritma – 0,4 g bufer aralashmasi substrat tayyorlagandek tayyorlanadi va saqlanadi. Aktivator – 45 mg sisteinxlorid 5 ml bidistillangan suvda eritiladi. Sovuqda saqlanadi. Eritma ikki kun ichida sarflanishi kerak. ATF eritmasi 40 mg ATF 2,1 ml bidistillangan suvda eritiladi. Eritma doimo yangidan tayyorlanadi.

Reaktiv tayyorlash. Ammoniy vannadiy eritmasi va ammoniy molibden eritmalari aralashtiriladi.

Kerakli anjomlar. Shtativ va probirkalar, pipetkalar, termostat yoki suv hammomi. Voronkalar, FEK va kyuvetalar.

Bajariladigan ish tartibi. Ferment faolligini aniqlash jadvalda ko'rsatilgan tartibda olib boriladi.

	Probirkalar			
	1	2	3	4
Substrat eritmasi	0,50	–	0,50	–
Bufer eritmasi	–	0,50	–	0,50
Etalon eritmasi	–	–	0,05	–
Aktivator eritmasi	0,20	–	–	–
Qon zardobi	0,05	0,05	–	
Bidistillangan suv	–	0,20	0,20	0,25

Barcha probirkalardagi suyuqliklar aralashtiriladi va 5 daqiqa 37°C li suv hammomida yoki termostatda ushlanadi.

ATF eritmasi	0,10	0,10	0,10	0,10
--------------	------	------	------	------

Suyuqliklar aralashtirilib, 37°C da bir soat ushlanadi va ularga UXSK eritmasidan 0,3 ml dan solinadi.

UXSK eritmasi	0,30	0,30	0,30	0,30
---------------	------	------	------	------

Suyuqliklar aralashtirilib, 5 daqiqa o'tgach, cho'ktiriladi yoki filtr qog'ozdan o'tkaziladi.

Oqsilsiz suyuqlik (filtrat)	0,60	0,60	0,60	0,60
Reaktiv aralashmasi	0,80	0,80	0,80	0,80

Suyuqliklar aralashtirilib, 5 daqiqa o'tgach, fotoelektrokolorimetr – (400 nm to'lqin uzunligida) 1 sm qalinlikdagi kyuve-ta ishlatiladi. Suyuqlikning zichligi spektrofotometrda o'lchanishi ham mumkin.

TAHLILIIY QISM

Mustahkamlash uchun testlar

1. Qaysi modda katabolizmining oxirgi mahsuloti siydik kislotada hisoblanadi?

- A. Purin asoslari
- B. Pirimidin asoslari
- C. Siklik aminokislotalar
- D. Ammiak

2. Qon zardobida siydik kislotada miqdorining normasi:

- A. 0,19–0,40 mmol/L
- B. 0,12–0,24 mmol/L
- C. 5,0–20,5 mmol/l
- D. 2,5–8,33 mmol/L

3. Siydikdagi siydik kislotada miqdorining normasi:

- A. 1,6–6,4 mmol/kun
- B. 1,6–6,4 mmol/l
- C. 44–64 g/l
- D. 2,5–8,33 mkmol/L

4. Giperurikemiya kuzatiladi:

- A. Podagrada
- B. Parenxima sariqlikda
- C. Semizlikda
- D. Albinizmida

5. Aminokislotalar faollanishi uchun qaysi ferment kerak bo'ladi?

- A. Aminoatsil-tRNK sintetaza
- B. Atsil-KoA sintetaza
- C. Atsetil-KoA atsetiltransferaza
- D. Monoaminooksidaza

6. Mikrosomal oksidlanish oksidlanishning qaysi tipiga tegishli?

- A. Monooksigenaza
- B. Dioksigenaza
- C. Oksidaza
- D. Degidrogenaza

- 7. Mikrosomal oksidlanishda qaysi ferment ishtirok etadi?**
- A. NADFH-sitoxrom P450 reduktaza
 - B. Sitoxrom
 - C. Peroksidaza
 - D. Sitoxrom P-650
- 8. Mikrosomal oksidlanishning biologik roli:**
- A. Ksenobiotiklarni zararsizlantirish
 - B. Hujayralarga kislorod transporti
 - C. To'qima nafas olishidagi ishtiroki
 - D. Energiya ishlab chiqarish
- 9. Fermentlarning antioksidant himoyasiga tegishli:**
- A. Glutationperoksidaza
 - B. Glyukozaoksidaza
 - C. Transketolasa
 - D. Monoaminooksidaza
- 10. Glutationning antioksidant himoyasida uning strukturasidagi qaysi guruh rol o'ynaydi?**
- A. Sulfgidril guruhlar
 - B. Metil guruhi
 - C. Gidroksil guruhi
 - D. Amino guruhi
- 11. Katalaza o'zgartiradi:**
- A. Vodorod peroksid
 - B. Peroksid radikali
 - C. Superoksid anioni
 - D. Glutation
- 12. Autotrof organizmlar qanday energiyadan foydalanadi?**
- A. Quyosh energiyasi
 - B. Elektr
 - C. Mexanik
 - D. Osmotik
- 13. Geterotrof organizmlar qanday energiyadan foydalanish imkoniyatiga ega?**
- A. Organik moddalar

B. Anorganik moddalar

C. Quyosh energiyasi

D. Mineral qismlar

14. Autotroflar organik moddalarni nima hisobiga sintezlaydi?

A. Fotosintez

B. Glikoliz

C. Proteoliz

D. Glikogenoliz

15. Anabolizmning nomlanishi:

A. Oraliq molekulalardan moddalar biosintezi

B. Organik moddalar parchalanishi

C. Biopolimerlar gidrolizi

D. Membranalar orqali birikmalar o'tkazilishi

16. Katabolizmning nomlanishi:

A. Organizmda biopolimerlar gidrolizi

B. Murakkab moddalarning biosintezi

C. Fotosintez

D. Xemosintez

17. Anabolik yo'llarga tegishli:

A. Yog' kislotalari biosintezi

B. Aminokislotalar dekarboksillanishi

C. Glikoliz

D. Glikogenoliz

18. Membrana orqali moddalarning transport turi:

A. Yengillashgan diffuziya

B. Lateral diffuziya

C. Dializ

D. Aksonal tok

19. Entropiya bu:

A. Tizimning tartibsizlik darajasi

B. Tizimda issiqlik saqlanishi

C. Tizimda energiya saqlanishi

D. Tizimda issiqlik yo'qotilishi

20. Ekzoergonik reaksiyalar qanday kechadi:

- A. Erkin energiyaning standart kamayishi
 - B. Erkin energiyaning standart ortishi
 - C. Issiqlik yutulishi
 - D. Energiya yutulishi
- 21. Energiyani bir turdan boshqa turga aylantiruvchi membrana bu:**
- A. Mitoxondriyaning ichki membranasi
 - B. Yadro membranasi
 - C. Mitoxondriyaning tashqi membranasi
 - D. Lizosoma membranasi
- 22. Energiya hosil bo'lishiga olib keluvchi ion:**
- A. H^+
 - B. Mg^{2+}
 - C. Ca^{2+}
 - D. Cl^-
- 23. Makroergik birikmalarga tegishli:**
- A. ATF
 - B. Glyukoza 6-fosfat
 - C. Yog' kislota
 - D. Kreatinin
- 24. Oksidlanish va fosforillanishning ajralishiga olib keladi:**
- A. Tana haroratining ortishi
 - B. Gipoksiya
 - C. Tana haroratining kamayishi
 - D. Gipovitaminoz
- 25. ATF nechta makroergik bog' saqlaydi?**
- A. Ikki
 - B. Bir
 - C. Uch
 - D. To'rt
- 26. Odamdagi universal makroergik birikma:**
- A. ATF
 - B. Glyukoza
 - C. Glikogen
 - D. Triglitserid

27. Oksidlanishli fosforillanish yo'li bilan organizmda qancha ATF ishlab chiqariladi?

- A. 90%
- B. 100%
- C. 75%
- D. 50%

28. To'qima nafas olish zanjiri joylashgan joy:

- A. Mitoxondriyaning ichki membranasida
- B. Yadroda
- C. Mitoxondriyaning tashqi membranasida
- D. Mitoxondriya matriksida

29. NAD kofermenti tarkibiga qaysi vitamin kiradi:

- A. PP
- B. B₁
- C. B₂
- D. B₆

30. Qaysi vitaminning kofermenti FAD hisoblanadi:

- A. B₂
- B. A
- C. B₁
- D. D₃

31. To'qima nafas olishida elektronlar tashilishini nima belgilaydi?

- A. Oksidlanish-qaytarilish potentsiali
- B. Molekulyar og'irligi
- C. Eruvchanligi
- D. Molekula shakli

32. To'qima nafas olishi to'liq zanjirining qismlari ketma-ketligi:

- A. NAD, FMN-KoQ-sitoxromlar
- B. NAD-NADF-KoQ-sitoxromlar
- C. FAD-NAD-KoQ-sitoxromlar
- D. NAD-FMN-CoA-sitoxromlar

33. Oksidlanishli fosforillanish yo'li bilan ATF sintezi qanday kuzatiladi:

A. To'qima nafas olish zanjirida

B. Glyukoneogenezda

C. Triglitsyeridlar sintezida

D. Aminokislotalar dezaminlanishida

34. Hujayrada ATFning asosiy miqdori qayerda sintezlanadi?

A. Mitoxondriyada

B. Endoplazmatik to'rdada

C. Yadroda

D. Lizosomada

35. To'qima nafas olishida proton gradiyenti qayerda hosil bo'ladi?

A. Mitoxondriyaning membranalararo bo'shlig'ida

B. Mitoxondriya matriksida

C. Sitoplazmada

D. Ribosomada

36. To'qima nafas zanjiri uchun NADH_2 ning mitoxondriyadan tashqari asosiy manbai:

A. Glikoliz

B. Glukoneogenez

C. Pentoz fosfat yo'li

D. Limon kislota sikli

37. Oksidlanuvchi fosforillanish mexanizmini tushuntiruvchi gipoteza:

A. Xemosmotik

B. Kimyoviy birlashish

C. Mexanik-kimyoviy

D. Konformatsion muvofiqlik

38. Qaysi ferment oksidlanish-qaytarilish jarayonida ATFni sintezlaydi?

A. ATF sintaza

B. Kreatinkinaza

C. Geksokinaza

D. Fosfataza

39. To'qima nafas olishida NADH_2 dan kislorodga bir juft elektron o'tkazilganda qancha ATF hosil bo'ladi?

- A. 3
- B. 12
- C. 2
- D. 38

40. To'qima nafas olishida $FADH_2$ dan kislorodga bir juft elektron o'tkazilganda qancha ATF hosil bo'ladi?

- A. 2
- B. 12
- C. 38
- D. 3

41. Uch karbon kislotalar siklini kim kashf qilgan?

- A. Krebs
- B. Senger
- C. Fisher
- D. Mitchell

42. Uch karbon kislotalar sikli qanday kichadi?

- A. Mitoxondriyada
- B. Sitoplazmada
- C. Yadroda
- D. Ribosomalarda

43. Uch karbon kislotalar siklida qaysi metabolit yutiladi?

- A. Atsetil KoA
- B. Ammiak
- C. Glyukoza
- D. Siydik kislota

44. Elektronlarni kislorodga o'tishini katalizlaydi:

- A. Sitoxrom
- B. Superoksiddismutaza
- C. Katalaza
- D. Peroksidaza

45. Piruvatni va a-ketoglutaratni dekarboksillanishida qatnashadigan kofermentlarni toping.

- A. TGFK
- B. Biotin

C. FAFS

D. TPF

46. Piruvatdegidrogenaza kompleksining joylashuvi:

A. Mitoxondriya ichki membranasining matriks tomonida

B. Mitoxondriya tashqi membranasining sitozol tomonida

C. Mitoxondriya tashqi membranasining ichki tomonida

D. Ichki membraning tashqi tomonida

47. Pirouzum kislotaning oksidlanib dekarboksillanishi bilan atsetil-KoA hosil bo'lish jarayonini boshqaruvchi multiferment sistemaga mansub uch asosiy fermentni ko'rsating:

A. Piruvatkinaza

B. Piruvatdegidrogenaza

C. Laktatdegidrogenaza

D. Digidrolipolatsetiltransferaza

48. Krebs sikli energetik funksiyani bajaradi: 1 molekula atsetil-KoAni Krebs halqasida oksidlanishi natijasida necha molekula ATF hosil bo'ladi:

A. 12

B. 15

C. 38

D. 19

49. Piruvat oksidlanishli dekarboksillanishi multiferment tizim orqali boshqariladi. Uning tarkibiga nechta ferment kiradi:

A. 3

B. 2

C. 1

D. 5

50. Piruvat oksidlanishli dekarboksillanish multiferment tizim orqali boshqariladi. Uning oxirgi mahsuloti bo'lib nima hisoblanadi:

A. Atsetil-KoA

B. Glyukoza

C. Fruktoza

D. Pentoza

VAZIYATLI MASALALAR

1. Mitoxondriya suspenziyasiga izotsitrat va ADF solinib 37° Mitoxondriya suspenziyasiga suksinat, ADF solib 37° Krebs halqasi reaksiyalarida bevosita kislorod ishtirok etmaydi. Lekin shunga qaramay sitrat sikli – aerob jarayondir. Kislorod yetishmaganda sitrat sikli reaksiyalari sekinlashishini tushuntiring.

2. Tajribada sitrat sikli va nafas olish zanjirining fermentlarini tutuvchi gomogenatga atsetil-KoA qo'shildi. Oksaloatsetat va atsetil-KoA miqlori inkubatsiyadan oldin va so'ng qanday o'zgaradi?

a) oksaloatsetat miqdori ortadimi? Oksaloatsetatning bu jarayondagi rolini ko'rsating.

b) atsetil-KoA miqdori o'zgaradimi? Krebs halqasida u qanday o'zgarishlarga uchraydi?

5. Yurak yetishmovchiligida TDF tutuvchi kokarboksilaza inyeksiyalari buyuriladi. Uning terapevtik ta'sir mexanizmini tushuntiring.

6. Biotinaza fermenti biotin bilan oqsil o'rtasidagi kovalent bog'ni uzadi va biotinni ajratadi. Erkin biotin biotinga bog'liq fermentlar faoliyatida qatnashadi. Biotinaza fermenti nasliy nuqsonida H vitamini gipovitaminozi belgilari kuzatiladi: gipoenergetik holat, toliqish, mushaklarda og'riqlar, tutqanoqlar, kamqonlik, dermatit, sochlarning to'kilishi. Kuzatiladigan gipoenergetik holatlar kelib chiqish mexanizmini yoriting.

QABUL QILINGAN QISQARTIRISHLAR

Aminokislotalar

Ala.Ala – alanin
Apr.Arg – arginin
Asp.Asp – aspartat kislota
Asp.NH₂. Asp.NH₂ – asparagin
Val.Val – valin
Gis.His – gistidin
Gli.Gly – glitsin
Glu.Glu – glutamat kislota
Glu.NH₂ – Glu.NH₂ – glutamin
Ile. Ile – izoleysin
Ley.Leu – leysin
Liz.Lys – lizin
Met.Met – metianin
Opro.Ox – oksiprolin
Pro.Pro – prolin
Ser.Ser – serin
Tir.Tyr – tirozin
Tre.Tre – treonin
Trp.Trp – triptofan
Fen.Phe – fenilalanin
fMet.fMet – formilmetionin
Sis.Cys – sistein

Nukleozidlar, nukleotidlar va nuklein kislotalar

A – adenin
ADF.ADP – adenzin difosfat kislota
AMF.AMP – adenzin monofosfat (adenilat kislota)
sAMF.sAMP – siklik monofosfat kislota
ATF.ATP – adenzin (trifosfat kislota)

G.G – guanin
GDF.GDP – guanozin (difosfat kislota)
GMF. GMP – guanozin monofosfat (guanilat kislota)
GTF.GTP – guanozin (trifosfat kislota)
DNK.DNA – dezoksiribonuklein kislota
DNK-aza – dezoksiribonukleaza
ITF. ITP – inozin trifosfat kislota
NAD+.NAD+ – nikotinamid-adenin dinukleotid
NADF.NADP – nikotinamid-adenin dinukleotid fosfat
NMN.NMN – nikotinamid mononukleotid
RNK.RNA – ribonuklein kislota
RNK-aza – ribonukleaza
T – timin
TDF.TDP – timidin difosfat
TMF.TMP – timidin monofosfat (timidilat kislota)
TTF.TTP – timidin trifosfat
U – uratsil
UDF.UDP – uridin difosfat
UDF.G.UDPG – uridin difosfat glyukoza
UDFG Gal.UDPGAL – uridin difosfat galaktoza
UMF.UMP – uridin monofosfat
UTF.UTP – uridin trifosfat
IAD.FAD – flavin adenin dinukleotid
IMN.FMN – flavin mononukleotid
S.S – sitozin
SDI.CDP – sitozin difosfat
SMF.CMP – sitozin monofosfat
STF.STP – sitozin trifosfat

Gormonlar

AKTG – adrenokortikotrop gormon
DOKA – dezoksikortikosteron atsetat
GG – gonodotrop gormon

ISK – indolil sirka kislota

Boshqa komponentlar

aFF – anorganik pirofosfat

aF – anorganik ortofosfat

ATO – atsil tashuvchi oqsil

ATFaza – adenozintrifosfataza

AtsKoA – atsetil koenzim A

KoA – koferment A

KoQ – koferment Q (ubixinon)

G-1-F – glyukoza-1-fosfat

Hb – gemoglobin

Hb CO – karboksigemoglobin

MetHb – metgemoglobin

HbO₂ – oksigemoglobin

Mb – mioglobin

MbO₂ – oksimioglobin

GSH.GSH – glutation (qaytarilgan)

GSSG.GSSG – glutation (oksidlangan)

DIFF – diizopropil ftor fosfat

DEAE – dietilaminoetenol sellyuloza

DNFB – dinitroftorbenzol

DNF – dinitrofenol

E – enzim molekulasi

ES – enzim, substrat molekulasi

IG – immunoglobulinlar

KMS – karboksimetil sellyuloza

KrF – kreatin fosfat

PGK – pteroilglutamat kislota

TGFK, H₄TGF – tetragidrofolat kislota

UKS – uch karbon kislotalar sikli

~F~R – makroerg fosfat bog‘i

EDTA – etanoldiamin tetraatsetat

Simvollar va boshqa qisqartmalar

A° –Angstrem birligi (10^{-8} sm)

g, kg, mg – gramm, kilogramm, milligramm

kal, kkal – kaloriya, kilokaloriya

KM– Mixaelis konstantasi

l, ml, mkl – litr, millilitr, mikrolitr

M, mM – mol, millimol

mk, mmk – mikron, millimikron (10^{-7} sm)

mkg – mikrogramm (10^{-6} kg)

mkl – mikrolitr (10^{-6} litr)

GLOSSARIY

Atamaning o'zbek tilida nomlanishi	Atamaning rus tilida nomlanishi	Atamaning ingliz tilida nomlanishi	Atamaning ma'nosi
Abaziya	Абазия	Abasia	bemorning mutlaqo yura olmay, hatto tik tura olmay qolishi
Abbreviatsiya	Аббревиация	Abbreviation	a'zolar yoki ular qismlarining individual rivojlanish jarayonida qisqarishi
Aberratsiya	Аберрация	Aberration	xromosomalar tuzilishidagi o'zgarishlar
Abiogenez	Абиогенез	Abiogenesis	tirik tabiatda mavjud bo'lgan organik birikmalarning organizm ishtirokisiz nobiologik yo'l bilan hosil bo'lishi
Ablastinlar	Абластины	Ablastins	ingibitorlar, organizmdagi maxsus bo'lmagan himoya vositasi
Absorbentlar	Абсорбенты	Absorbents	absorbiyalovchi, yutuvchi, surib oluvchi, shimuvchi moddalar. Masalan, aktivlangan ko'mir, eritrotsitlar
Absorptiv davr	Период всасывания	Absorptive period	organizmga kirish, oqsillar, yog'lar va uglevodlarni hazm qilish va assimilyatsiya qilish
Adaptatsiya	Адаптация	Adaptation	moslashish
Adenilatsiklaza	Аденилат-циклаза	Adenylate cyclase	plazma membranasi-ning fermenti bo'lib, ATF dan sAMF hosil bo'lish reaksiyasini katalizlaydi

Adenin	Аденин	Adenin	purin asoslaridan biri, DNK, RNK da uchraydi
Adenozin-monofosfat (AMF)	Аденозин-монофосфат (АМФ)	Adenosine monophosphate (AMF)	bu adenin, riboza va fosfor kislotasi qoldig'idan iborat mononukleotid
Adenin tri-fosfat kislotasi (ATF)	Адеинозин-трифосфат kislotasi (АТФ)	Adenin the acid	adenin, riboza va fosfat kislotasi qoldig'idan tashkil topgan birikma
Adipotsitlar	Адипоциты	Adipocytes	bu yog' to'qimalarining hujayralari
Adrenalin	Адреналин	Adrenaline	bu buyrak usti bezining gormoni
Adrenokortikotropik gormon (AKTG)	Адренокортикотропный гормон (АКТГ)	Adrenocorticotrophic hormone (ACTH)	adenogipofizda ishlab chiqariladi, adrenal korteksni rag'batlantiradi
Adrenoreseptorlar	Адренорецепторы	Adrenoceptors	katexolaminlarni maxsus bog'laydigan oqsillar
Aerobik glyukozaning oksidlanishi	Аэробное окисление глюкозы	Aerobic glucose oxidation	glyukozaning CO ₂ va H ₂ O ga to'liq oksidlanishi tayyorgarlik bosqichini o'z ichiga oladi
Agglutinatsiya	Агглютинация	Agglutination	suyuqliklardagi zarrachalar (bakteriyalar, eritrotsitlar va boshqa hujayra elementlari) ning bir-biriga yopishib, g'ujlanib qolishi
Agglutininnlar	Агглютинины	Agglutinins	qon zardobida hosil bo'lib, ular ta'sirida yopishib, g'ujlanib (agglutinatsiyalanib) qolgan organizm uchun yot moddalar

Agoniya	Агония	Agonia	(yun. agonia – kurash) o'lim talvasasi
Akklimatizatsiya	Акклиматизация	Acclimatization	organizm uchun yangi bo'lgan yoki o'zgargan iqlim sharoitiga moslashish
Akseptor	Акцептор	Acceptor	qabul qiluvchi birikma
Alanin	Аланин	Alanine	polyar bo'lmagan, almashtiriladigan proteinogen aminokislota
Albinizm	Альбинизм	Albinism	melanotsitlardagi tirozinaza genining nuqsonligi tufayli muayyan turdagi organizmlarga xos normal pigmentatsiyaning tug'ma bo'lmashligi
Albumin	Альбумин	Albumin	oddiy, sharsimon, kislotali oqsil
Algldlar	Алгиды	Algid	organik kislotalar hosilasi
Aldosteron	Альдостерон	Aldosterone	bu metabolizmni tartibga soluvchi adrenal korteksning steroid gormoni
Alkaloz	Алкалоз	Alkalosis	bu qon pH ning gidroksidi tomonga siljishi
Alkaptonuriya	Алкаптонурия	Alkaptonuria	bu gomogentezin kislotasi dioksid geni genidagi nuqson tufayli tirozinning (qora siydik) irsiy metabolik kasalligi
Alkaloidlar	Алкалоиды	Alkaloids	tarkibida azot tutuvchi, ishqoriy xususiyatga ega birikmalar

Alkogoldegidrogenaza	Алкоголь-дегидрогеназа	Alcohol dehydrogenase	bu etanolning oksidlanishini katalizlovchi oksidoreduktaza sinfidagi ferment
Allel	Алель	Allel	allelomorf, ya'ni gen ayrim strukturaviy holatlarining imkoniyatlaridan biri
Allergiya	Аллергия	Allergy	organizmga yot bo'lgan antigenlar (mikroblar, yot oqsillar va boshqa omillar ta'sirida yuzaga keladigan organizmning o'ta sezgirligi
Allopurinol	Аллопуринол	Allopurinol	podagrani davolashda ishlatiladigan gipoksantinining tarkibiy analogidir
Allosterik tartibga solish	Аллостерическая регуляция	Allosteric regulation	allosterik markazga tushganda fermentlar faolligining o'zgarishi
Allosterik	Аллостерик	Allosteric	tartibga solish bu ferment faolligini tartibga solish mexanizmlaridan biri
Allotropiya	Аллотропия	Allotropy	bu ba'zi kimyoviy elementlarning tuzilishi va xususiyatlariga ko'ra bir necha oddiy moddalarni hosil qilish qobiliyatidir
Almashinmaydigan aminokislotalar	Незаменимые аминокислоты	Ned aminokistotes	inson va hayvon organizmida sintez qilinmaydigan oziq-ovqat bilan olinadigan aminokislotalar

Amelin	Амелин	Amelin	bu emal oqsilidir, bu umumiy emal oqsilining 5 foizini tashkil qiladi
Ameloblastlar	Амелобласты	Ameloblasts	bu emal apatitlarini shakllantirish uchun zarur bo'lgan mineral elementlarni tashish, bog'lash va cho'ktirishni ta'minlovchi molekullarni sintez qiladigan hujayralar
Amelogenin	Амелогенин	Amelogenin	emal glikofosfoprotein (90% emal oqsillari); ko'p miqdorda prolin (25–30%), shuningdek gis, gln va ley) mavjud
Amilaza	Амилаза	Amylase	gidrolaza sinfining fermenti bo'lib, u amiloza va amilopektinning -1,4-glikozid bog'larini uzadi. Kraxmalni maltoza disaxaridgacha parchalaydi
Aminoatsil-tRNK sintetaza	Аминоацил-тРНК синтетаза	Aminoacyl-tRNA synthetase	bu aminokislotalarning tegishli tRNKlarga bog'lanishini katalizlovchi ferment
Ammonifikatsiya	Аммонификация	Ammonification	azotli moddalarni mikroorganizmlar yordamida ammiakgacha parchalanishi
Aminokislotalar	Аминокислоты	Amino acids	oqsillardan tashkil topgan monomerdir (qat'iy aytganda, ular a-aminokislotalardan tashkil topgan)

Аминокислоталарнинг амфотерлиги	Амфотерность аминокислот	Amphotericity of amino acids	aminokislotalarning ham kislotali, ham asosli xususiyatlarini namoyish etish qobiliyati
Аминопептидаза	Аминопептидаза	Aminopeptidase	bu N-terminal aminokislotalarning parchalanishini katalizlovchi gidrolaza
Аминотрансфераза	Аминотрансфераза	Aminotransferase	bu aminokislotalardan aminoguruhni pirodoksalfosfat ishtirokida keto kislotaga o'tishni katalizlovchi ferment
Анабиоз	Анабиоз	Anabiosis	organizmning tirikligini ko'rsatib turuvchi belgilari ko'rinmay qolgan darajada hayotiy jarayonlari sustlashib ketgan holati. Zarur sharoit tug'ilishi bilan hayot faoliyati qayta tiklanadi
Анаболизм	Анаболизм	Anabolism	assimilyasiya oddiy moddalardan murakkab modda azotli moddalarni mikroorganizmlar yordamida ammiakgacha parchalanishi
Анафаза	Анафаза	Anafaza	hujayra bo'linishining 3-fazasi
Ангиотензин I	Ангиотензин I	Angiotensin I	bu ангиотензин II ангиотенсина aylantiruvchi ferment ta'sirida hosil bo'lgan decapeptid
Анти	Анти	Анти	biror narsaga qarama-qarshi, zid, aks ma'nosini anglatuvchi old qo'shimcha

Antidiuretik gormon	Антидиуретический гормон	Antidiuretic hormone	buyrak kanallarida suv reabsorbsiyasini keltirib chiqaradi va vazokonstriktor ta'siriga ega (vazopressin)
Antigenlar	Антигены	Antigens	maxsus immun javobini chaqirishga qodir bo'lgan organizm uchun yot oqsillar
Antikodon	АНТИКОДОН	Anticodon	bu mRNK kodonini to'ldiruvchi tRNK nukleotidlarining uchlik qismi
Antitelalar	Антитела	Antibodies	organizmga yot oqsil kriganda hosil bo'ladigan va shu yot oqsilning zararli ta'sirini yo'qotadigan oqsil moddalar
Antitrombin III	Анти тромбин III	Antithrombin III	bu qon plazmasi oqsili
Apoferment	Апофермент	Apo ferment	fermentning oqsil qismi
Apoproteinlar	Апопротеины	Apoproteins	murakkab oqsillarning protein qismi
Aralashmadagi moddaning massa ulushi	Массовая доля вещества в смеси	The mass fraction of a substance	bu qism egallagan hajmning aralashmaning umumiy hajmiga nisbati
Aralashmadagi moddaning molyar ulushi	Молярная доля вещества в смеси	The molar fraction of a substance	bitta tarkibiy qismdagi modda miqdorining aralashmadagi barcha moddalarning umumiy miqdoriga nisbati
Araxidon kislotasi	Арахидоновая кислота	Arachidonic acid	eykozatetraenoik yog' kislotasi, fosfolipidlarining tarkibiga kiradi, eikosanoidlar manbayi

Arginaza	Аргиназа	Arginase	bu gidrolaza sinfining fermenti bo'lib, arginning ornitin va karbamidga parchalanishini katalizlaydi
Arginin	Аргинин	Arginine	proteinogen, o'rnini bosmaydigan, mustabat zaryadlangan aminokislotani yon radikalda guanidin o'z ichiga oladi
Atsetaldegid	Ацетальдегид	Acetaldehyde	bu etanolning oksidlanish mahsuli
Asparagin	Аспарагин	Asparagine	proteinogen polyar aminokislotadir — aspartik kislotamidi
Asparagin kislota	Аспарагиновая кислота	Aspartic acid	dikarboksilik proteinogen aminokislotadir
Aspirin (atsetilsalitsil kislotasi)	Аспирин (ацетилсалициловая кислота)	Aspirin (acetylsalicylic acid)	bu steroid bo'lmagan yallig'lanishga qarshi dori, qaytarib bo'lmaydigan sikloksigenaza ingibitori
Assimilyatsiya yoki anabolizm	Ассимиляция или анаболизм	Assimilation or Anabolism	tashqaridan kirgan moddalarni organizmga qabul qilish, o'zlashtirish va organizmning o'z moddasiga aylantirish
Atom radiusi	Атомный радиус	Atomic radius	yadrodan elektron zichligi chegarasiga qadar bo'lgan shartli masofa

Atsetil ko-fermenti A (Atsetil-KoA)	Ацетил-кофермент А (Ацетил-KoA)	Acetyl coenzyme A (Acetyl-CoA)	bu piruvatning oksidlovchi dekarboksillanishi va Krebs siklida ishlatiladigan yogʻ kislotalarining β -oksidlanishi jarayonida hosil boʻlgan atsetatning faol shakli, xolesterin, yogʻ kislotalari va keton tanalarining sintezi
Atsetilxolin	Ацетилхолин	Acetylcholine	sirka kislotasi va xolinning mediatorlari boʻlgan atsetilxolin miya yarim korteksidagi xolinergik neyronlar
Atsil-KoA sintetaza	Ацил-KoA синтетаза	Acyl-CoA synthetase	bu birinchi b-oksidlanish reaksiyasini, KoA va ATF ishtirokidagi yogʻ kislotasini faollashtirish reaksiyasini katalizlaydigan ferment
Avidin	Авидин	Avidin	hayvon va parrandalar tuxumidagi glikoproteidlar boʻlib, ular isteʼmol qilinganda suvda erimaydigan, biologik jihatdan faol boʻlmagan majmua hosil qiladi
Aviditet	Авидитет	Avidity	antitelalarning antigenlarga yaqinligi, immun reaksiyalarning tezligi va toʻliqligi hamda antigen va antitelalarning birikishidan hosil boʻlgan barqaror majmua

Avitaminoz	Авитаминоз	Avitaminosis	organizmda vitaminlar yetishmasligi natijasida paydo bo'ladigan kasallik
Avtoklav	Автоклав	Autoclave	laboratoriyalarda ishlatiladigan idishlarni, maxsus kiyimlarni, ozuqa muhitlarni bosim ostida (2,5 atm. gacha), to'yingan suv bug'i ta'sirida, 138°C da virus va mikroorganizmlardan zararsizlantiruvchi asbob
Avtoliz	Аутолиз	Autolysis	organizm to'qimalari tarkibidagi fermentlar ta'sirida hujayralarning o'z-o'zidan erishi, parchalanishi
Avtotomiya	Аутотомия	Automation	bir qancha hayvonlarda yirtqich hayvon changaliga tushib qolganida himoya tariqasida tanasining biror qismini beixtiyor uzib tashlashi
Autotrof organizmlar	Аутоτροφное организм	Autotrof	anorganik moddalardan hayot faoliyati uchun zarur organik moddalar hosil qilinishi
Avtoliz	Автолиз	Autolyz	o'z-o'zidan parchalanish, tirik organizmdagi organik moddalarning fermentlar yordamida parchalanishi

Azot balansi	Азотный баланс	Nitrogen balance	oziq-ovqatdan olingan va tanadan chiqariladigan azot miqdori-ni nisbati; bolalar va homilador ayollarda – ijobiy, kattalarda – nol, qariyalarda – salbiy
Bilirubin	Билирубин	Bilirubin	qizil pigment bo'lgan biliverdinni tiklash mahsulidir
Biliverdin	Биливердин	Biliverdin	bu yashil safro pigmenti bo'lgan gemoglobinning parchalanish mahsuloti
Biokimyoy	Биохимия	Biochemistry	tirik organizmlarning kimyoviy tarkibi va kimyoviy reaksiyalari haqidagi fan
Biosintez	Биосинтез	Biosynthesis	fermentlar yordamida oddiy moddalardan organik birikmalar hosil bo'lishi
Biotexnologiya	Биотехнология	Biotechnology	biologik jarayonlar va omillardan sanoat miqyosida foydalanish
Biotin	Биотин	Biotin	(Vitamin H), biositin karboksilazalari kofermentining bir qismi
Bor effekti	Эффект бора	The effect of boron	gemoglobinning kislorodga bog'liqligining vodorod ionlari konsentratsiyasiga bog'liqligi
Dam olish potentsiali	Потенциал покоя	The resting potential	bu ochilmagan hujayra membranasining tashqi va ichki tomonlari orasidagi potentsial farq

Degidrogena- zlar	Дегидро- геназы	Dehydroge- nases	bu oksidoreduktaza sin- fidagi fermentlar, ular elektron va protonlar- ning substratdan oksid- langan koenzimga va koenzimlarning pasay- gan shaklidan substrat- ga o'tkazilishini kata- lizlaydi
Denaturatsiya	Денатурация	Denaturation	uning to'rtlamchi, uchlamchi yoki ik- kilamchi tuzilishini buzishi natijasida oqsil- ning biologik faolligini yo'qotishi
Disulfid alo- qasi	Дисульфид- ная связь	Disulfide bond	sistein molekularining ikkita sulfidril guruhini oksidlash, jarayonida hosil bo'lgan kuchli kovalent bog'lanish
Disaxaridlar	Дисахариды	Disinherits	2 ta monosaxariddan tashkil topgan uglevod- lar
Dissimi- lyatsiya	Диссимиля- ция	Dissimila- tion	parchalanish jarayoni
DNK mutatsiyalari	Мутации ДНК	DNA muta- tions	DNKning birlam- chi tuzilishidagi me- ros qilib qoldirilmagan o'zgarishlar
DNK polimeraza	ДНК- полимераза	DNA polymerase	bu DNKni ko'pay- tirishda ishtirok etadi- gan ferment
DNK sintezi	Синтез ДНК	DNA synthesis	ota-ona hujayrasining DNK matritsasida yan- gi DNK molekularari- ning shakllanishi

Eykozanoidlar	Эйкозаноиды	Eicosanoids	araxidon kislotasi-ning oksidlangan hosilalari: prostaglandinlar, tromboksanlar, trombositklar, leykotrienlar
Ekzopeptidazalar	Экзопептидазы	Exopeptidases	bu aminokislotalarni tozalash orqali oqsillarni gidrolizlaydigan fermentlar: C – uchidan karboksipeptidazalar, N – uchidan aminopeptidazalar
Ekzotermik reaksiya	Экзотермическая реакция	An exothermic reaction	issiqlik chiqishi bilan davom etadigan reaksiya
Ekzotsitoz	Экзоцитоз	Exocytosis	bu zarrachalarni hujayralardan ajratish jarayoni, bunda hujayra ichidagi vezikulalar tashqi hujayra membranasi bilan birlashadi
Elastaza	Эластаза	Elastase	hayvonlar va odamlarning oshqozon osti bezi tomonidan ishlab chiqarilgan gidrolazalar sinfidagi ferment
Elastin	Эластин	Elastin	biriktiruvchi to'qimaning ikkinchi eng muhim oqsili bo'lib, u egiluvchanlikka ega va to'qimalarning tiklanishiga imkon beradi
Elektrokimyoviy korroziya	Электрохимическая коррозия	Electrochemical corrosion	bu elektrolitlar muhitida metallning parchalanishi, bu holda turli xil ta'sirdagi ikkita metall elektrolit bilan aloqa qilganda galvanik juft hosil bo'ladi

Elektroliz	Электролиз	Electrolysis	bu elektr toki eritma yoki eritmadan o'tganda sodir bo'ladigan redoksoks jarayon
Endonukleazlar	Эндонуклеазы	Endonucleases	polinukleotid zanjirida ichki fosfodiefir aloqalarini uzadigan gidrolazalar sinfning fermentlari
Endopeptidazalar	Эндопептидазы	Endopeptidases	bu peptid zanjiri ichidagi peptid aloqalarini buzadigan proteolitik fermentlar
Endotermik reaksiya	Эндотермическая реакция	Endothermic reaction	issiqlikni yutish bilan davom etadigan reaksiya
Eritmaning massa ulushi	Массовая доля раствора	The mass fraction of a solution	100 gramm eritmada bo'lgan eritmaning massasi. Ushbu komponent massasining butun eritma massasiga nisbati teng
Ekzoderma	Экзодерма	Exzoderm	tashqi po'stloq, il-diz epidermisi tagida joylashgan birlamchi po'stloq to'qima qavati. Himoya vazifasini bajaradi
Elongatsiya	Элонгация	Elongation	cho'zilish, uzunlanish – oqsil sintezida ko'p marta qaytariladigan va polipeptid zanjirning uzunlashishiga olib keladigan jarayon

Eukariotlar	Эукариоты	Eucariot	hujayrasida shakllagan yadro bo'lgan organizmlar. Bularga mag'iz qobig'i va boshqa hujayra organizmlarining mavjudligi xos
Fazeolin	Фазеолин	Phazeolin	no'xat urug'i tarkibidagi oqsil
Fenilalanin	Фенилаланин	Phenylalanine	barcha oqsillar tarkibiga kiruvchi zaruriy aminokislota
Fermentlar	Ферменты	Enzymes	enzimlar, biologik katalizatorlar tirik organizmlarda hosil bo'ladigan oqsil tabiatli birikmalar bo'lib, boradigan reaksiyalarni tezlashtiradi
Fibrillar oqsillar	Фибриллярные белки	Fibreless proteins	suvda erimaydigan, tolasimon oqsillar, ipak oqsili
Fitin	Фитин	Fit in	inozit fosfat kislotaning kalsiy va magniyli tuzi. Zaxira ozuqa modda sifatida chigitda ko'p to'planadi
Faol markaz	Активный центр	The active center	ferment molekulasiining joyi bo'lib, unda substrat bog'lanib, mahsulotga aylanadi, ferment molekulasiining reaksiya sodir bo'lgan joyi

Faol transport	Активный транспорт	Active transport	bu energiya sarflanadigan moddalarni membranalar orqali uzatish
Fenilketonuriya	Фенилкетонурия	Phenylketonuria	fenilalanin gidroksilaza yetishmovchiligi tufayli irsiy oligofreniyadir
Ferment	Фермент	Enzyme	biologik katalizator bo'lib deyarli barcha fermentlar va oqsillar kiradi
Ferritin	Ферритин	Ferritin	jigar va boshqa to'qimalarning temir tarkibidagi oqsil, organizmda temir zaxirasi bo'lib xizmat qiladi
Ferroxelataza	Феррохелатаза	Ferrohelatase	Fe^{2+} ning protoporfirin IX ga qo'shilishini katalizlovchi gem sintez fermenti
Fibrillar oqsillar	Фибриллярные белки	Fibrillar proteins	filiform shaklga ega bo'lgan oqsillar (mushak oqsili miyozin, tendon oqsili kollagen va boshqalar)
Fibrinogen	Фибриноген	Fibrinogen	plazmadagi protein, jigarda sintezlanadi, trombin ta'sirida fibrinaga aylanadi
Flavinadenin dinukleotidi (FAD)	Флавинадениндинуклеотид (ФАД)	Flavinadenine dinucleotide (FAD)	bu riboflavin (B_2 vitamini) va adenil kislotasini o'z ichiga olgan oksidoreduktaza koenzimi
Flavinonukleotidi	Флавинонуклеотид	Flavinonucleotide	bu riboflavin (B_2 vitamini) va fosfor kislotasi qoldig'ini o'z ichiga olgan oksidoreduktazaning koenzimi

Flyuoroz	Флюороз	Fluorosis	bu F – ionlarining suv tarkibidagi ortiqcha miqdori va tish apatitining yo‘q qilinishining natijasi
Folik kislota	Фолиевая кислота	Folic acid	bu purin va pirimidinli azotli asoslarning sintezida ishtirok etadigan tetragidrofolat koenzimining bir qismi bo‘lgan suvda eruvchan vitamin
Fosfodies-teraza	Фосфодиэстераза	Phosphodiesterase	gidrolaza sinfining fermenti bo‘lgan, tsAMFdagi fosfodies-ter aloqasi yorilishini katalizlaydi
Fosfofrukto-kinaza	Фосфофруктокиназа	Phosphofructokinase	cheklangan (eng sekin) glikoliz reaksiyasini katalizlovchi kalit glikoliz fermenti
Fosfogliserat-kinaza	Фосфоглицераткиназа	Phosphoglycerate kinase	bu glikolizda substrat fosforilla nishining reaksiyasini katalizlaydigan transferazalar sinfining fermenti
